

**Forish tuman axborot-kutubxona
markazi axborot-bibliografiya xizmati**



**“O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan
yurist” faxriy unvoni sohibasi**

Umsun Astanova haqida

**“Hayot maktabi” nomli bibliografik
qo`llanma**

Forish-2026 -yil

Tarix faqatgina dunyodan o'tgan kishilarning qilgan ishlarini gapirish, ularni yod etishdangina iborat emas. Oramizda o'zida katta tarixni jamlagan, o'tmishi ne-ne kitoblarga jo bo'lguvchi yurtdoshlarimiz ham oz emas. Keksalik gashtini surib yonimizda yashayotgan, hayotiy tajribalari va donishmandliklari bilan atrofdagilarga kuch-quvvat berayotgan kishilar ham talaygina. Ularning olayotgan har bir nafasi, aytayotgan har bir gapi bugungi yoshlar uchun katta ibrat maktabidir.

Ushbu qo'llanma kasbi sabab el orasida mashhur bo'lgan, umrining katta qismini sud'yalikdek og'ir va mashaqqatli sohaga bag'ishlagan yurtdoshlarimizdan biri, uzoq yillar sud-huquq tizimida samarali ish olib borgan sud faxriysi Umsun Astanova haqidadir.

Tuzuvchi: Forish tuman axborot-kutubxona markazi
axborot-bibliografiya xizmat rahbari N. Artikova

SO`Z BOSHI

Etakchilik qobiliyatiga ega, el-yurtimiz uchun
fidoyixotin-qizlarimiz–xalqimiz, millatimizning
oltin fondi, desak, hech qanday mubolag`a bo`lmaydi
Shavkat Mirziyoyev

Bu yil 95-bahorini qarshi olgan Umsun Astanova taqdir yo`lining har bir sinovidan matonat bilan o`ta olgan va kelgusi avlodga ulkan tajriba maktabini yaratgan inson. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "millatimizning oltin fondi", desak mubolag`a bo`lmaydi.

Umsun Astanova 26-yil tuman sudi raisi bo`lib ishladi. Umsun Astanova nafaqaga chiqqandan keyin ham 1995 yildan 2011 yilgacha "Sog`lom hayot uchun" jamg`armasi Forish tuman tayanch punkti direktori lavozimida faoliyatini davom ettirdi. Onaxonning farzandlari ham u kishidek el xizmatidagi Kasblardan ketishdi.

Onaxon salkam bir asrlik hayot maktabi bilan farzandlari, nevaralari, ko`plab shogirdlariga to`g`ri yo`lni ko`rsatib keldi. U fidoyiligi, samarali faoliyati tufayli 1987 yilda "O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan yurist" unvoni, 2005 yilda "Shuhrat" medali, 2021 yilda "Sud faxriysi" ko`krak nishoni, yaqinda 8 mart —Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan esa Prezident farmoniga ko`ra "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlandi.

2023 yilda Umsun Astanovaning hayot yo`lidan hikoya qiluvchi Arslon Eshmurodov muallifligidagi "Matonatli ayol qissasi" kitobi chop etildi. Unda onaxonning boshidan kechirgan og`ir kunlari, zulmatdagi kechinmalari, sabr va bardosh bilan yorug`likka chiqqani haqidagi hikoyani mutolaa qilar ekansiz, dastlabki sahifalardan oq ko`zingizda yosh qalqiydi. Iroda va kuch timsolining har bir satrlaridan ibrat olasiz, shukronalik hissini tuyasiz.

"Bugun yurtimiz tinch, osuda. Hayotimiz to`kin va farovon. Bunday kunlarning qadriga yetishimiz kerak", — deydi onaxon qarilik yuziga soya solgan, qaddini bukkan bo`lsada, o`sha qat'iyat va dadillik bilan. Umsun onani chin ma'noda hayot sinovlarida toblangan matonatli onaxon desak, mubolag`a bo`lmaydi.

TARJIMAI HOL



Men, Astanova Umsun, 7-dekabr 1932-yilda O`zbekiston Respublikasi, Jizzax viloyati, Forish tumani Yangiqishloq shaharchasida ishchi oilasida tug`ilganman.

Otam-Rustamov Oston-1890-yilda tug`ilgan, 1945- yilda vafot etgan.

Onam-Rustamova Xolbibibi -1896-yilda tug`ilgan va 1981-yilda vafot etgan. Otam va onam tuman kommunal xo`jalik bo`limida ishchi vazifasida ishlashgan.

Men, 1940-yilda tuman markazidagi M.Gorkiy nomli maktabga o`qishga bordim va otam vafotidan keyin tuman kommunal xo`jalik idorasida farrosh, xazinachi, hammom mudirasi, markaziy bank bo`limida hisobchi vazifalarida 1953-yilga qadar ishladim.

Shuningdek, 1953-yildan 1963- yilga qadar tuman FXDYO bo`limi mudirasi, 1963-yildan 1967-yilga qadar Forish tuman ijtimoiy ta'minot bo`limida nafaqalar bo`yicha yo`riqchi-mudira, 1967-yildan 1969-yilga qadar, Xalq, deputatlari Forish tuman ijroiya kumitasi raisi o`rinbosari, 1969 yildan 1995 yilga qadar Forish tuman sudining sudya vazifalarida ishladim.

Hozirgi kunda «Sogʻlom avlod uchun» jamgʻarmasi Forish tuman tayanch punkti direktori vazifasida ishlab kelmoqdaman.

Turmush oʻrtogʻim- Shaharov Xolyigit 1929-yilda tugʻilgan va 1986-yilda vafot etgan, vafot etgunga qadar tuman madaniyat boʻlimi mudiri vazifasida ishlagan.

Oilalikman, 6 nafar farzandim bor:

Qizim-Ziyaxanova (Shaharova) Dilbar 1956-yilda tugʻilgan, uy bekasi;

Oʻgʻlim-Shaharov Sobir 1958-yilda tugʻilgan, tuman hokimligi «Obodonlashtirish boshqarmasi» boshligʻi vazifasida ishlaydi;

Oʻgʻlim-Shaharov Qodir 1964-yilda tugʻilgan, Forish tumani «Qahramon» advokatlik byurosi rahbari vazifasida ishlaydi;

Qizim-Shaharova Gulbahor-1966- yilda tugʻilgan, tuman FXDYO boʻlimi mudirasi vazifasida ishlaydi;

Qizim-Isroilova (Shaharova) Lobar-1973-yilda tugʻilgan, Oʻzbekiston savdo xodimlari va tadbirkorlar kasaba uyushmasi markaziy Kengashida ish yurituvchi vazifasida ishlaydi;

Qizim- Burhonova (Shaharova) Mohinur 1977-yilda tugʻilgan, uy bekasi;

Men 1984-yilda «Mehnat faxriysi», «Mehnatda oʻrnak koʻrsatganligi uchun», 2005 yilda «Shuhrat» medallari, 1987-yilda «Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan yurist» unvoni bilan taqdirlanganman.

Oila aʼzolarim va qarindoshlarimdan sudlanganlar yoʻq.

U.Astanova

INSON HAMISHA MEHRGA MUHTOJ

Oʻzbekiston Respublikasi Sudʼyalar oliy kengashining yaqinda oʻtkazilgan yigʻilishida Kengash raisi tomonidan bugungi kunda faoliyat yuritayotgan sudʼyalar uchun tom maʼnoda ibrat maktabi boʻladigan, halol-pok yashab odamlar orasida alohida hurmat qozongan, yuksak martabaga erishgan mashhur sudʼyalar hayoti va faoliyatiga bagʻishlangan turkum kitoblarni tayyorlash va nashr etish tashabbusi ilgari surildi. Ushbu kitoblarni chop etish orqali yangi jamiyatning bosh maqsadiga aylangan insonni eʼzozlash gʻoyasining hayotiy roʻyobiga munosib hissa qoʻshiladi.

Qizgʻin muhokama va turli fikr- mulohazalardan soʻng, “Ibrat” rukni ostida nashr etilib boriladigan dastlabki kitoblardan biriga qahramon sifatida 26-yil davomida sudga raislik qilib, sharafli hayot yoʻlini bosib oʻtib, elu-yurtning mehru-muhabbatini qozonib, bugungi kunda keksalik gashtini surayotgan INSON. “Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan yurist” faxriy unvoni sohibasi Umsun Astanova tanlandi. Umsun Astanovaning hayoti va faoliyatini yaqindan oʻrganib, ushbu kitobni tayyorlash maqsadida qahramonimiz tugʻilib oʻsgan va ayni paytda umrguzaronlik qilayotgan Jizzax viloyatining Forish tumaniga safarga otlandik. Jizzax shahridan qariyb 70 km uzoqlikda joylashgan Forish tumani mamlakatimizning eng mashhur goʻshalaridan biri boʻlib, uning adoqsiz kengliklari bir tomondan Qozogʻiston Respublikasining bepoyon tekisliklari, yana bir tomondan esa viqorli Qoʻshrabot va Nurota togʻlari bilan tutashib ketadi. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasida keltirilgan maʼlumogʻlarga koʻra, Forish qishlogʻining nomi Sohibqiron bobomiz Amir Temur Samarqand atrofida qurdirmoqchi boʻlgan “Parij” shahrining nomidan olingan. Keyinroq mahalliy xalq shevasida bu atama Farij, Farish, Forish deb oʻzgarib brogan degan, taxmin mavjud. Tumanda 2 shaharcha (Uchquloq. Yangiqishloq). 11 qishloq fuqarolari yigʻini (Arnasoy. Garasha, Gulzor, Darvoza, Omongeldi, Osmonsoy. Oʻxum, Forish, Egizbuloq, Qizilqum, Qoraabdol) kabi tarixiy maskanlar bor.

Tuman markazi Yangiqishloq shaharchasiga keldik. Toʻgʻrisini aitsam yoʻl boʻyi Umsun ona 92 yoshga kirgan boʻlsa, kitobga kiritshimiz kerak boʻlgan qiziqarli maʼlumot va voqea-hodisalarni, ayniqsa

mu'tabar onamizning bolaligi bilan bog'liq xotiralarini kimdan va qaerdan olsak bo'lar ekan, degan hadik bilan keldim. Sababi, qariyb yuz bilan yuzlashayotgan yoshi ulug' insonni bezovta qilish, uni gapiring, buni aytib bering, deb savol-so'roqqa tutish biroz o'ng'aysiz. Qolaversa, shuncha yoshga kirgan odam o'zining bolalik yoki o'smirlik davrlarini, keyinchalik kechgan mehnat faoliyatini eslab gapirib berishga jismoniy va ruhiy quvvati etarmikan, degan xavotir men qiynaydi...

Jizzax viloyati sudi raisi Akrom Shukurov hamrohligida Forish tumani markaziga kirib keldik. Bundan o'n yil oldin ham xizmat safari bilan Forish markaziga kelganman. Tuman markazining qiyofasi ancha o'zgarib ketibdi. Katta yo'ning ikkala tomonida ham qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilgan, pastqam, ko'rimsiz binolar buzilib, o'rniga ko'rkam, salobatli, zamonaviy binolar qurilibdi.

Mahalla guzari deb yozilgan chiroyli binoning oldiga mashinani to'xtatib, birinchi duch kelgan, chamasi 60 yoshlarga borib qolgan odamdan qahramonimizning uyini so'radik. Forishlik bu do'stimiz yuziga birdan tabassum yugurdi. - "Ha-a, "Umsun SUD"ning uyimi?"

Qishloqliklarga xos samimiyat bilan "hayla, mana shu yerda, uzoq emas", deya qo'lini ko'tarib kun botar tomonga ishora qildi. U kishi ko'rsatgan tomonga jo'nashga taraddudlanganimizda birinchi marta kelishlaringiz bo'lsa, "qidirib, adashib sarson bo'lmasliklaringiz uchun yaxshisi o'zim yo'l boshlab borganim ma'qul" deb mashinamizga o'tirdi. Salom-alikdan so'ng yo'l boshlovchimiz Umsun opani Forishliklar o'zlarining eng faxrli insonlaridan biri deb bilib, juda hurmat qilishlarini, yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan barcha forishliklar Opani tanishlarini va bunday yurtdoshlari bilan hamisha g'ururlanishlarini aytdi. Jaydari, sofdil insonlarning "hayla"si qariyb 4-5 km uzoqlikda bo'lishini yana bir marta his qildim. Forishlik hamrohimiz bilan ancha yo'lni bosib, o'ngga, chapga burilib, 5-6 muyulishlardan o'tdik. Yo'l boshlovchimiz "Opaning uyiga ham kelib qoldik" deb, haydovchimizga kichkinagina, pastqam hovlining oldida mashinani to'xtatishini aytdi. Mashinadan tushib hamrohlar bilan Umsun opaning hovlisiga kirdik. Oddiy qishloq hovlisi. Hech qanday hashamatli, baland, zebziyat berilgan imorat yo'q. Lekin, toza-pokiza, saranjom-sarishta, bir so'z bilan aytganda farishtali xonadon. Nihoyat, ichkari uydan Umsun ona chiqib keldi. Baland bo'yli, kelishgan. Keksalik harakatlariga biroz soya slogan bo'lishiga qaramasdan, yurishi tetik. Gulduragan ovozi, qisqa, lo'nda va aniq gapirishlari Opaning qat'iyatli inson ekanligini ko'rsatib turibdi. Salomlashdik. Maqsad-muddaoni aytdik. Opa kitob tayyorlayotganimizni eshitib, rosa quvondi. Shy yoshga yetganimizda ozmi-ko'pmi mehnatlarimizni qadrlab, men haqimda alohida kitob tayyorlanayotgan ekan, bundan juda xursandman, minnatdorman", deya qayta-qayta takrorladi. Opaning behad quvonganini ko'rib, tabiatan inson hamisha mehrga muhtojlik sezib yashashligini yana bir bor his qildim...

Umsun opa bizni ichkari uyga boshlad. Hol-ahvollashganimizdan keyin opani savolga tutdik. OPA haqiqatdan ham "xudo bergan" inson ekan. Besh soat davomida 7-8 yoshligidan boshlab, toki bugungi kungacha bo'lgan hayoti va faoliyatini, boshidan o'tkazgan yaxshi va yomon kunlarni "munchoqlarni ipga tizgandek" qilib, birma-bir gapirib berdi. Loaqal adashib, voqealarni chalkashtirib ham yubormadi. Ketma-ket, ravon, bir maromda tushunarli qilib bayon qiladi. Qoyil qolmaslikning iloji yo'q. Umsun opaning bu darajada mustahkam xotirasi borligini ko'rib, hayratga tushdik. Bundan 80-85 yil oldin bo'lib o'tgan voqea-hodisalarni go'yoki kecha bo'lib o'tgandek, barcha tafsilotlari bilan so'zma-so'z aytib berdi. Xalqimiz bunday favqulodda mustahkam xotirali, esda saqlash qobiliyati juda yuqori bo'lgan kishilarni "quyma quloq" insonlar deb alqashadi. Opaning huzuriga borguncha yo'lda o'ylab, tashvishlanganlarim behuda bo'lib chiqdi. O'zim shunday noto'g'ri xayollarga borganligimdan uyaldim. Yuqorida bejiz Umsun opani "xudo bergan" inson ekan, demadik. Yaratgan Onaga 92 yoshda ham shunday kuch-quvvat tetiklik ato etgan, ilohim ko'z tegmasin, umrlari ziyoda bo'lsin.

BAXT KELITIRGAN BAXTSIZ BOLALIK

Umsun opa bolalik damlarini eslar ekan, og'ir bir xo'rsinib olib, gap boshladi: -Taqdirimdan nolib gapirishni yomon ko'raman. Lekin, mening bolaligim juda ayanchli kechgan. U kunlarni eslasam, hozir ham yuragim orqaga tortib ketadi. Qahatchilik va yo'qchilik zamon. Bir burda non topish haqiqatdan ham amri mahol. Har bir oilaga alohida uy-joy qaerda, deysiz? Sakkizta xo'jalik, ya'ni oila bitta

yotoqxonada yashardik. Aslida bu yotoqxonada o'ta davrdagi davlat xizmatchilari va ularning oila-a'zolari yashashi uchun mo'ljallangan edi.

Otam, onam, men, yana bir singlim va ukam besh kishi shu yotoqxonaning torgina oshxonasida kun ko'rardik. Bizning uyimiz yo'q edi. Suv yo'q, qish pantda isitish imkonsiz, tor xona, xullas sharoit nihoyatda og'ir.

Onam rahmatlining ismlari Xolbibi edilar, yuzlarida xoli bo'lganligi uchun ucun qo'ni-qo'shnilarimiz Xoldon opa deb aytardilar. Ozgina iqtisodiy sharoiti yaxshi, imkoniyati bor odamlar masalan, tuman rohbarlari oilalari uchun non pishirib berar edi. Evaziga bitta nonning yarmini o'zimiz olar edik. Non pishirish ham har kuni bo'lmas, haftada bir yoki ikki marta takrorlanardi. Chunki, odamlarda unning o'zi nihoyatda kam edi. Nonni pishirishga o'tin juda muammo. Onam bilan 4-5 km uzoqlikda cho'lga chiqib ketib o'tin yig'ardik. Bir amallab kovul, saksovil, shuvoq topib kelardik. Qornim juda och bo'lganligi uchun onam qo'shnilarimizga non pishirishga ketsa, uning tezroq qaytib kelishini intazorlik bilan kutardim. Ba'zan eshikning kichkina teshigidan onamning yo'lga ko'z tikib o'tirardim. Onamning qo'lida non bormi-yo'qmi, deb. Sababi, ayrimlar agar o'tin o'zlaridan bo'lsa, usha yarim nonni ham bermas edi. Bunday kunlarni hech bandaga ko'rsatmasin...

7-8 yoshimda kiyimlarim yo'qligi uchun maktabga borolmaganman. 10 yoshimda 1-sinfga bordim. Maktabga birinchi borgan kunim hech qachon yodimdan chiqmaydi. Oyog'imga qo'shnimizning katta, eski kalishini kiyib borganman. Kuylaklarim ham bir ahvol. Ida Bobojonova (Ida opa Rayispolkomning raisi edi) degan opaning mendan 3 yosh kichkina qizi Bozorgul bilan ikkimiz birga borganmiz. Bozorgulning iqtisodiy sharoiti yaxshi bo'lganligi tufayli oyog'idagi tuflisi ham. egnidagi ko'ylagi ham yaxshi edida, Ikkalamiz sinfxonaga kirdik. O'qituvchimiz Bozorgulni birinchi qatorga o'tirtirdi, meni esa oxirgi qatorga joylashtirdi. Shunday qilib o'qishni boshladim. 4-sinfga o'tganimdan keyin, maktabga borishga umuman imkonim bo'lmay qoldi. Kiyimlarim yo'q, onam dalaga o'tin yig'ishga ketadi, men 2 yoshli singlimga qarab o'tirishim kerak. O'sha singlimni sovuq va zahda o'ynatib olib o'tiraverganman, bilmaganman ichaklari shamollab qolib, olamdan o'tdi.

Oyoq kiyimim yo'qligi uchun qishda maktabga qatnash imkonim bo'lmagan. Kun issiq paytlarda yalangbosh, yalangoyoq maktabga qatnardim. Maktabga borolmay qolgan kunlarimning birida O'qituvchimiz Toshkentdan kelgan Karimova Karomat opa uyga kelib, onamga Umsun yaxshi o'qiydi, nega maktabga yubormayapsiz, kelajakda u o'qimishli odam bo'lib Sizga qaraydi, dedi. Bechora onam rahmatli domlaga — men atayin yubormayotganim yo'q, oyog'iga, ustiga kiyib boradigan kiyimlari yo'q, bundan tashqari men majburman ishga ketaman singlisiga qarab qoladi,- dedi yig'lamsirab. O'sha o'qituvchimiz juda yaxshi inson edi. Tushundi va indamai chiqib ketib biron soatdan keyin yana qaytib keldi. Onamni so'radi onam dalaga ketgan edi. Menga qizining eski tuflisini va kiyimlarini olib kelgan ekan. Ertaga shularni kiyib maktabga borgan, deb tayinlab ketdi. Onam daladan keldi. O'qituvchimiz olib kelgan kiyimlarni ko'rsatdim. Onam rahmatli yum-yum yig'ladi...

Aniq yodimda, o'shanda aprel oyi edi. Bir kuni onam menga "qo'shnimiz Raykomning ikkinchi sekretari yalpiz terib keling, deyapti men shunga ketaman. Sen ukangni uyda o'ynatib o'tir", deb tayinlab o'zlari yalpiz terishga ketdi. Bechora onam kim nima ish buyursa, shunga ketaverardi. Chunki, tirikchiligimiz shuning orqasidan edida. Otam tuman kommunal xo'jalik bo'limida (KOMXOZ deyilardi) oddiy ishchi bo'lib ishlagan. Shu kuni talon bilan beriladigan 300 grammlik non tarqatiladigan kun ekan. Otam kun uzog'i o'sha nonni olishi uchun navbatda turibdi. Aksiga olib tarqatiladigan non kelmabdi. Non yo'q, endi bugun kelmaydi degandan keyin, otam rahmatli majbur bo'lib non tarqatiladigan joyning yonida pochtaning buzilib qolgan eski binosidan tandirga o'tin olaman deb, 5-6 metr balandlikdan xoda bilan birga yerga yiqilgan va og'ir yog'och taxta zarb bilan ko'krigiga urilgan. O'sha yerda olamdan o'tgan. Uch-to'rt odam otamni ko'tarib uyga olib keldi. Men nima bo'lganligiga tushunganim yo'q. Otam xuddi uxlaganday yotibdi. Otamni olib kelgan o'sha odamlar men bilan ukamni tashqariga chiqarib yuborishdi. Oradan ko'p o'tmay yig'lab-siqtab onam kelib qoldi. Hairon bo'lib, nega yig'layapsiz, deb so'rasam, otangdan ajralib qoldik, borib Izzat yangangni chaqirib kel, dedi

zor-zor yig`lab. Izzat yanga-otamning akasining turmush o`rtog`i edi. Ular bizning uyimizdan chamasi 4-5 km uzoqlikda yashardi. Bu yog`i kun botib qolgan. Qo`rqish nimaligini bilmayman, piyoda-sovora Izzat yangalarnikiga bordim. Bemahal borganimni ko`rgan Yanga qo`rqib ketdi. Otamning o`lganligini aitdim. - Eh attang, eh attang, - beb qattiq xafa bo`ldi. Birga uyga qaytdik. Izzat yangam juda kayvoni ayol bo`lib, bizning tilimizba aytganda baxshi edi. Odamlarni o`qib, chiroq yoqib davolardi. Bizga ham ko`p yordam berib turardi. U kishi ko`p narsalarni bilardi, Uyga kelishi bilan onamga dalda berib, qaerdandir latta-lutta topib, otam rahmatlini olib kelgan odamlarga unday qilinglar, bunday qilinglar, deb ko`rsatib turdi. Shunday qilib otamni dafn etishga tayyorlashdi. Qo`ni-qo`shnilar, qavmi-qarindoshlar yig`ilishdi. Shunda kimdir, qaerdandir 20 dona bo`lka non olib keldi. Men shu paytgacha shuncha ko`p nonni ko`rmagan ekanman. Chunki, uyimizda hech qachon buncha non bo`lmagan. Ochlik, yetishmovchilik shu darajada bo`lganki, 20 nonni ko`rib, otamning o`lgani ham yodimdan chiqib, xayriyat bizning shuncha nonimiz bor, endi bularni to`yib yeymiz, deb o`ylabman...

Otamni qabristonga ko`mib kelishdi. Xullas, taqdir ekan, kambag`alchilik va yo`qchilik yetmaganidek, bemahal otamizdan ham ayrilib qoldik. Otam o`lgandan keyin hayot kechirishimiz oldingidan ham og`irlashib qoldi. Chorasizlikdan men 13 yoshimda tuman kommunal xo`jaligi idorasi (komxoz)ga farrosh bo`lib ishga kirdim. Ish faoliyatim haqidagi ma'lumotnomada (ob'ektivka) ham xuddi shunday yozilgan. 1932 yil tug`ilgan bo`lsam, 1945 yil ishga kirganman.

“Osmon uzoq, yer qattiq”

Zomindan Paradaev Abdulla degan kishi Komxozga rahbar bo`lib keldi. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi edi. Turmush o`rtog`i Fotima opa (uyg`ur edi, biz Faya opa derdik). Bir kuni Faya opa, - Umsun sen qizim Tamaraga qara, senga ko`ylak olib beraman, qorningni to`yg`izaman, yordam beraman, — dedi. Ko`ylak olib beraman, deganini eshitib rosa quvondim. Sababi, kiyadigan ko`ylagim yo`q eski-tuski narsalarni kiyib yurardim. O`shanda qizi Tamara hali bir yoshga ham to`lmagan edi. Unga qarayman. O`ynataman, u bu joylarga olib boraman. Bir voqea hech yodimdan chiqmaydi: Faya opa bergan va`dasining ustidan chiqib, menga ko`ylak olib bergandi. Men uchun bu juda katta xursandchilik bo`lgan. Yupqagina materialdan bo`lgan, o`sha paytda u matoni dog`daka deb aytardik, qo`ldan to`qilgan bo`lardir. Shundan boshqa o`zi deyarli material ham bo`lmasdi. Oq guli ham ko`rinar-ko`rinmas rangi o`chib ketganga o`xshardi. Lekin nihoyatda yupqa edi. Bir kuni shu ko`ylakni kiyib, Tamarani ko`tarib madaniyat bo`limiga kino qo`yiladigan joyga olib bordim. Ovozsiz, rangsiz kinolar kunduz kuni qo`yilardi. Borsam kino boshlanib ketgan ekan. Eshikni ochishim bilan kino ko`rib o`tirgan bolalar meni ko`rib qah-qah otib kulib yuborishdi. Nega kulayapti, deb hayronman. Bir jahlim chiqdi, surobi yo`q. Hech o`zimni bosolmayman. Kino davom etayapti. Kino tugaguncha bir balo qilib sabr qildim. Kino tugashi bilan birinchi qatorda o`tirgan ikkita o`g`il bolaning oldiga jahl bilan bordim. Yana kulsa-yu, men bor kuchim bilan urib yuborsam, deb turibman. G`azab bilan nimaga mening ustimdan kuldilaring, deb so`radim. Vajohatimdan qo`rqib ketib, biz emas, ana u bolalar kuldi, deb boshqa bolalarni ko`rsatdi. Orasida 2-3 ta qiz bolalar ham bor ekan. Birovi biz senga kulmadik, eshikni ochishing bilan ko`ylaging yuqaligidan badaning ko`rindi, shuning uchun kuldik, deyishdi. Xo`rligim kelib, yig`lamsirab, kulmanglar mening shundan boshqa kiyadigan ko`ylagim yo`q dedim. Xafa bo`lib uyga qaytdim. Faya opalar ovqatlanishayotgan ekan, menga ham ozgina o`lmas ovqat qo`yib berdi. Bumday qahatchilik zamonida kim sizga qorinni to`yg`izadigan ovqat beradi. U bechoralar ham borini berganda. Mening asosiy maqsadim, o`sha yerdan nimadir yeb olish. Boshqa iloj ham, imkoniyat ham yo`q. Ba`zi kunlari Abdulla akanikida ham menga ovqat yetmay qolgan kunlar bo`lardir. Shunday kunlarda qorin och, yig`lab uyga qaytgan kunlarim ham ko`p bo`lgan. To`g`risini aytganda, bizning uyimizda ovqat qilishga deyarli imkoniyat bo`lmagan. Qayerdandir biron narsa yeb olishga, kimlarning qo`liga qarab turshga hayot meni majbur qilgan. Abdulla akaning Shirinskaya degan rus qo`shnisi bor edi. U ayol nonga talon beradigan (Gossnabda) ishlardi. Bir kuni o`sha ayol menga oq echkisini sog`ib berishimni aytdi. Nonga talon berar degan ilinjda echkisini daladan haydab kelib, amallab chuqur qazib, katalakni qo`yib sog`ib berdim. Opa menga bitta nonga talon berdi. Haftada bir yoki ikki marta echkini sog`ib nonga talon olar va uyga onamga, ukamga olib kelardim. Uyga kelguncha yo`lda o`sha nonning

chetlarini oz-ozginadan kamib yeb kelardim. Onam o'sha nondan menga yupqa qilib kesib berardi. Nimaga menga buncha yupua kesdingiz, desam sen Abdulla akanikidan ovqat yeb kegansan, ertaga bu nonni bizga kim beradi, derdi. Nonni ko'rpachaning orasiga yashirib qo'yardi. Hozir bu gaplarga birov ishonmaydi. Ming afsuski, bu aytganlarim hayotiy haqiqat, bo'lgan gaplar. Kun kechirish haddan tashqari og'ir zamon edi. Shu rus opa menga juda ko'p narsalarni o'rgatdi. Qiynalib yurganimni ko'rib, o'zingni asra, onangni asra, xafa bo'lma, kelajakda juda katta odam bo'lasan, deb dalda berib, ko'nglimni ko'tarardi. Rus tilida gaplashishni ham shu opadan o'rganib oldim. Juda mehribon va oliyjanob ayol edi.

Shu yillari komxozning hammomida ishchi bo'lib ham ishlaganman. Hammomning katta qozoniga ariqdan suv yig'ib kelib 200 chelak suv quyib, uni to'ldirishim kerak. Qishning kuni, ustim yupun, oyog'imda latta choriqqa o'xshagan narsa, noskim yo'q. Endi o'ylasam o'sha paytda noski ham bo'lmagan ekanda. Oyog'im loyga toyib ketib yiqildim. Shunda qo'limning chimchilog'i chiqib ketgan ekan. Qattiq og'rib azob beradi. Ustim, oyoq kiyimlarim suvga botib shalobba bo'lib qolgan. Endi uyimizga qaytishim kerak, lekin ust-boshim juda namiqib ketgan, uni ozgina quritib olishim uchun Faya opanikiga kirdim. Kirsam qozonda ovqat. nima ovqat ekanligini bilmayman. Nima bo'lsa ham yegim kelib turibdi. Plitaga (isitish anjomi) quritib olish uchun ustimni tutib tursam, Faya opa menga uyda suv tugabdi. Ariqdan borib 2 paqir suv olib kel, keyin ovqat yeysan, dedi. O'zim hammomning qozonini to'ldirganimcha charchab qolganman. Faya opa men charchadim, borolmayman, deb aytishga tilim bormayapti. Chunki, qornim och, opaning ovqatini halollob yeyisnim kerak. Borib suv olib kelayin desam, ustim hali yaxshi qurimagan, o'zimning tinka-madorim qurib qolgan. Bor kuchimni yig'ib, chelakni ko'tarib, yalangoyoq suv olib kelgani jo'nadim. Chunki, tashqariga yechib qo'ygan latta chorig'im muzlab qolgan. Yo'l bo'yi, eh bu shum taqdir, qora kunlar qachon tugar ekan, deb yig'lab borib kelganman. Suvni olib keldim, Abdulla aka. Umsun qozonda ovqat bor, olib ich, dedi. Qozonni ochib ko'rsam, yarim piyolagina quruq suvdan iborat, yovg'on sho'rva qolibdi. Ichida yeydigan hech vaqosi yo'q. Ichayin desam, kamgina quruq suv, ichmayin desam, nozlanib ichmadi. deyishlarini o'ylayman. Menga qoldirilgan yovg'on sho'rvani ichib, qozonlarini yuvib qo'ydim va uyga ketdim. Yo'l qalin qor, tamol sovu u izgirindai uamma tomom kurtuk bulib ketgan. Yalangoyoq qor kechib, kurtuk oralab uyga keldim. Onam, singlim sovuq uyda meni kutib o'tiribdi. Rosa charchaganman, buyog'i sovuqqotib, muzlab qolganman. Ko'rpa-to'shak ham o'ziga yarasha, borli-yoqli. Yotdim. Ozgina vaqt o'tganini bilaman. Boshim, oyog'im, butun a'zoi-badanim qaqshab og'rib boshladi. Voy-dod, deb boshimni ushlab yig'layman. Ichayin, desam dori qaerda, deysiz. Qorong'u tushib qolgan. Onam bechora nima qilishini bilmaydi. Men dod solib, yig'lab yotibman. Yig'lab-yig'lab uxlab qolibman. Tong sahar, uyg'ondim. Qarasam og'riq yo'q. Xudoyim mehribonda, o'zi shifo bergan. Ertalab yana ishga keldim. Komxoz rahbari "Umsun raykomnng uyiga bor, uyini tozalab kel, Rayispolkomning uyiga bor falon ishni qilib kel" -deb buyuradi. Xullas, ertalabdan kechgacha goh uning uyida, goh buning uyida xizmatini qilaman. Qilmagan ishim qolmagan. Shu tashkilotda 1945-yildan 1953-yilgacha sakkiz yil shunday azob bilan ishlaganman. 12-13 yoshlarimda ishlab boshlaganligim sababli 'Front orti faxriysi' ro'yxatiga ham kiritilganman. Bu bo'yicha tegishli hujjatim ham bor. Aslida "osmon uzoq, yer qattiq" degan gap bekorga chiqmagan. Menday sho'rpehona odam, achchiq alam bilan aytgan bo'lsa kerak...

Ming bir azob bilan o'tkazgan bolalik yillarimda Abdulla Pardaevlar oilasidan juda ko'p yaxshilik ko'rganman. Bu oila juda ziyoli, ma'rifatli, ahil-ittifoq, tinch oila edi. Mening keyingi hayotimga, ish faoliyatimga bu oilaning juda katta ta'siri bo'lgan. Abdulla akaning mutaxassisligi yurist ekan. Huquqshunos bo'lishimga ham shu inson sababchi bo'lgan. Shu oilada bo'lib o'tgan yana bir voqeani doimo eslab turaman: Abdulla aka atayin 25 so'm pulni ochiq joyga, stolning ustida qoldirib, o'zi ishga chiqib ketdi. Faya opa ham ish bilan qaergadir ketdi. Men ularning qizi Tamaraga qarab o'tiribman. Ular ketganidan keyin Tamara yosh pul nimaligini bilmaydi, yirttib tashlamasin yoki o'sha pul yo'qolmasin degan maqsadda uni olib uyning burchagida turadigan stolning tagiga tayin yashirib qo'ydim. Kech bo'ldi, Abdulla aka bilan Faya opa kelishdi. Tamarani ularga berib endi ketaman, deb turganimda Abdulla aka Umsun ertalab mana bu yerga 25 so'm pul qo'ygan edim, qani o'sha, sen olmading-mi?,- deb suradi. Yugurib borib, o'zim yashirib qo'ygan joydan pulni olib, Abdulla aki bu pul yo'qolmasligi

uchun stolning tagiga yashirib qo`ygan edim, deb olib berdim. Abdulla aka shu tariqa meni shu pulni oladimi, yo`qmi deb sinovdan o`tkazgan ekan.

Umsun opaning ayanchli bolalik xotiralarini eshitib, inson taqdirining qanchalik murakkabligini, bu bevafo va bebaqo dunyoda sanoqsiz chigal muammolar bilan duch kelib yashashga majbur ekanligini teran his qilasz. Umsun Astanovaning mana shu azob-uqubatlarni sabot va matonat bilan yengib o`rganligining o`zi juda katta ma'naviy jasoratdir. Umsun opa najot faqat halollikda va intilishda deb bilib, barcha sinovlarni mardonavor yengib o`rganligini ko`pchilik havas va hayrat bilan qaraydigan keyingi hayoti isbotlab beradi. Zero, akademik shoirimiz G`afur G`ulom ta'biri bilan aytganda:

**“Taqdirin qo`l bilan yaratur odam,
G`oyibdan kelajak baxt bir afsona.”**

Aslida insonning keyingi taqdiriga uning bolaligida poydevor tashlanadi. Opaning bolalik chog`laridayoq mana shunday adoqsiz azob-uqubatlar bilan ro`baro kelishi, uning keyingi hayoti va faoliyati gullab-yashnashiga muhim omil bo`lgandir, ehtimol. Balki, mana shunday “baxtsiz bolalik”ni boshidan o`tkazmaganida bugungiday sharafli martabalarga erishmagan bo`lishi mumkin edi. Bu bizning xulosalarimiz, xolos. Shubhasiz, har bir insonning taqdiri Yaratganning izmidida...

TAQDIR TUHFASI YOXUD RO`SHNOLIKNING BOSHLANISHI

Opaning hikoya qilishicha qahramonimizning qora kunlari 1953-yilga kelib poyoniga yeta boshlagan. Butun mamlakatda ham ijtimoiy-siyosiy hayot o`zgarib, xalq tili bilan aytganda, odamlarning qorni nonga to`ya boshlagan. Umsun opa odatdagi kunlardan birida komxoz xodimlari bilan (ishchilar orasida 3 ta erkak ham bo`lgan) soy ustiga kichikroq oddiygina qilib odam o`tdigan ko`prik qurayotgan paytda erkak ishchilar qatori Umsun opa ham juda og`ir yuklarni ko`tarib, zambil tashib, sidqidildan mashaqqatli mehnat qilayotganini O`sha paytdagi Forish tumani rahbari (raykom sekretari) Murod Jo`rayev ko`rib qoladi. Tuman rahbari shu kuni xotin-qizlar bo`yicha mas'ul xodimiga “bo`yi yetib qolgan bu qizlarimiz ertaga ona bo`lishi kerak, bu ahvolda uning kelajagi qanday bo`ladi?! Tezlikda bu qizning ota-onasini, oilasini, ma'lumotini surishtiring”, o`zingiz qiz bilan gaplashib, dunyoqarashini, bilimi va salohiyatini aniqlang, deb topshiriq beradi. Onaning aytishiga qaraganda, aslida tuman rahbari oldinlari ham Umsun opaning usti yupun, bir ahvolda ishlab yurganligiga bir-ikkita marta ko`zi tushgan ekan. Yaxshisi, gapning davomini qahramonimizning o`zidan eshitganingiz maroqli:

Ertasi ertalab ishga kelsam, kutilmaganda Raykomning qarovuli kelib meni Ida Bobojonova chaqirayotganini aytdi. Ustimdagi kiyimlarimdan (eski-tuski kiyimlar kiyib yuribmanda) xijolat bo`lib, uyalib men borolmayman, dedim. Yo`q bormasang bo`lmaydi, o`zig bilan birga olib kel, deb tayinlabdi u kishiga. Hech narsadan xabarim yo`q. Birinchi qo`rqib ketdim. Nima balo, bu ishimdan ham ayrildimmikan?

Bilib-bilmasdan xato qilib qo`ydimmi, degan ming bir o`y bilan Ida opaning oldiga bordim. Opa yaxshi salomlashib, so`rashib bo`lgach, Murod Jurayev kecha menga Siz nega bu qizlarga qaramaysiz, qachon qarasangiz usti bir ahvolda, yarim belidan suvga botib, tosh toshib, erkaklar qiladigan og`ir ishlarni qilib yuradi, deb sening bunday qiyinchilik ko`rib yurganing uchun urishdi,- dedi. Meni bu ishdan bo`shatib, o`zlari yengilroq ish topib berishlarini aytdi. Undan keyin maktabga borib-bormaganimni, o`qish va yozishni bilish-bilmasligimni so`ray boshladi. Yana bir qancha savollar berdi. Bilganimcha javob berdim. Suhbatimiz tugagach, men ishimga qaytib ketdim. Oradan 2-3 kun o`tgach, Ida opa meni yana oldiga chaqirib ZAGS bo`limi mudiriga kotiba bo`lib ishlashimni aytdi. Buni eshntib ikkilandim. Oddiy ishchi bo`lib yurgan odam tuman ZAGS bo`limi mudiri kotibasi bo`lib ishlay olarkanmi? Buning javobgarligi kata bo`lsa kerak, deb o`yladim va Ida Bobojonovaga onam bilan maslahatlashib kelayin, menga ertagacha muhlat bering, dedim. Opa rozi bo`ldi. Kechqurun uyga borib, onamga meni boshqa ishga o`tkazishyapti, tuman ZAGS bo`limi mudiriga kotiba bo`lasan, deb aytishdi. Men ularga bu ishda ishlay olarmikanman, onamdan so`rab kelayin, deb aytdim, dedim. Onam rahmatli o`qimagan, bu qanday ish, nima bilan shug`ullanashini yaxshi tushunmasdi. O`ylab-o`ylab rozi bo`ldim

va Ida Bobojonovanning oldiga borib, ishlashga rozi bo'lganligimni aytdim. O'sha davrda ZAGS bo'limi ichki ishlarga qarar ekan. Yangi ish joyimga bordim. Bitta xona, eskirib ketgan bitta stol turibdi. ZAGS bo'limi rahbari (inspektori) yoshi kattaroq erkak kishi ekan. Nima uchundir mening ishga kelganligimni yoqtirmadi. Ishni o'rgatish, yo'l-yo'riq ko'rsatish u yoqda tursin, faqat qo'pollik qilib, yomon gapirib, jerkib tashlayveradi. Men esa ishimni yaxshi o'rganib olish maqsadida tinmasdan harakat qilaman. Bo'limga kim nima ish bilan kelsa, yaxshi kutib olib, imkon qadar ishini hal qilib berishga harakat qilaman. Kelganlar ham menga yaxshi muomala qilishadi. Bu munosabat ham rahbarimga yoqmaydi. Ish boshlaganimdan keyin bir hafta o'tib, qandaydir hujjatning yo'qolganligini menga to'nkadi. Men u hujjatni umuman olganim ham, ko'rganim ham yo'q. Aslida "yo'qolgan" bu hujjatni o'zi atayin yashirib qo'yib, shu bahonada meni ishdan haydamoqchi bo'lgan ekan. Menga bu juda yomon ta'sir qildi. Shunda yoshim ham 20 dan oshib qolgan. O'shanda birinchi bor tushundimki, bu hayotda inson faqat kurashib yashash va ishlashi kerak ekan. Inspektorning bu hatti-harakati meni yanada qattiqroq va pishiqroq ishlashga undadi. Endi ishimga yanada ehtiyot bo'lib, ko'proq ish o'rganishga kirishdim. Baribir inspektor meni u joyga sig'dirmadi. Boshqa bir kattaroq tuhmatni qilmasin deb ishdan ketdim. Shundan keyin 3 oy ishsiz qoldim. Ishlamasam bo'lmaydi. Qo'shnining qizi bilan har kuni dalaga chiqib, o'tin, shuvoq yig'aman. 50 bog' o'tin to'pladim. Lekin, Raykomimiz Murod Jo'rayev inspektor bilan mening o'rtamdagi munosabatdan xabar topib, o'zi yana aralashib, meni ZAGSga kotiba bo'lib ishlashim uchun Samarqandga komissiyadan o'tib kelishga yubordi. U paytlarda Forish tumani Samarqand viloyatiga qarar edi. 1953- yil 13 noyabrda Samarqandga borib komissiyadan o'tib keldim va yana kotiba bo'lib ishni boshladim. Endi inspektor majbur bo'lib menga odamlarni ro'yxatga oladigan bitta kitob bilan, nikohni qaid etadigan daftar berdi. Ishni ancha o'rganib qoldim. ZAGSda ishlab yurgan paytlarim sudda maslahatchi (заседатель) bo'lib qatnashardim. Nurotalik Xo'jakeldi aka Utenov degan qozoq millatiga mansub sud'yamiz bo'lardi. Yoshi katta bir qo'li nogiron odam edi. Sudga qatnashish uchun yana bir kuni borsam, Utenov o'z-o'zidan Umsun sen sudni yaxshi tushunar ekansan. Senda qandaydir talant bor, kuzatib yuribman, ko'p narsalarni darrov ilg'ab olasan. Kelajakda yurist bo'lishing kerak. Buning uchun ko'proq o'qi, intil, harakat qil, ishingdan bo'sh paytlari sudga ko'proq kelib tur, ish o'rganasan, deb nasihat qildi. Xo'p, deb ZAGSdagi ishlarimni qilib yuraverdim. Odatdagi kunlarning birida Utenov meni sudga chaqirdi. Bordim. U kishi men 6 oylik o'qishga ketaman, sen mening o'rnimda sud'ya bo'lib ishlab turasan, deb aytdi. Men endi sud'ya bo'lib ishlashni tasavvur qila olmayman. Birdan men buni qila olmayman, kimnidir nohaq qamab qo'yib, yana qaysidir jinoyatchini noqonuniy chiqarib yuborib, baloga yo'liqib yurmayin, yaxshisi boshqa odam toping, dedim. U kishi ajablanib qoldi va o'rniga ishlab turshiga odam topolmayotganidan emas, balki mening kelajagimni o'ylab o'rniga qoldirib ketmoqchi bo'layotganligini aytdi. Men buni tushunmabman. Utenov juda yaxshi inson edi. Yotig'i bilan menga tushuntira ketdi: — "Ismoil aka Qurbonov prokuror, tajribali odam, senga yordam berib turadi. Ijrochiga ham tayinlab aytaman, u kishi ham yo'l-yo'riq ko'rsatadi, sen qo'rqma, o'rganasan",-dedi, mehribonlik va kuyunchaklik bilan. Shu gaplaridan keyin rozi bo'ldim. Xullas, Utenov menga sud'yalikni topshirib. O'zi o'qishga jo'nab ketdi.

Bu voqea 1956 yilda bo'layapti, o'sha paytda 24 yoshdaman. 1955 yil turmushga chiqqan bo'lsam, katta qizim Dilbar endi tug'ilgan, qo'limda hali chaqaloq. Qo'limdagi chaqalog'im bilan onamni ham birga olib Samarqand shahriga sud'ya sifatida tasdiqdan o'tish uchun jo'nadim. Avtobus, yengil mashina degan gap yo'q u zamonlarda. Qorong'u tushib, kech bo'lib ketganda Samarqand viloyat sudiga bir amallab yetib bordik. Ish vaqti tugagan, hamma uyiga ketgan. Oblsudning qorovuliga tasdiqdan o'tish uchun Forishdan kelganimizni tushuntirdim. Yozning kuni ekanda, qorovul sud hovlisidagi katta tut daraxtining tagiga sholcha to'shab berdi. Chaqaloq qizim, onam hammamiz daraxtning tagida tongni ottirdik. Ertasi ertalab Dehqonboy aka degan obsudning raisi bilan uchrashdim. U kishiga Utenov vaqtincha ishlab turasan, deb tavsiya qilganligini aytdim. Rais juda yaxshi ekan. Bizning kechasi bilan daraxtning tagida yotib chiqqanimizni bilib, chaqaloq bilan qiynalib tashqarida yotib chiqibsizlar, ertaroq kelganlaringda, darrov qaytario yuborardim, dedi xijolat chekib. Hali juda yosh ekansan, sud'ya bo'lib ishlay olasanmi, ishonsak bo'ladimi?! Sud'yalik oson ish emas, ehtiyot bo'l, deb qayta-qayta uqtirdi.-Tag'in birovlarning aldoviga ishonib qolma, seni yo'ldan uruvchi

odamlar ham ko'p bo'ladi, tushunmasang, biladigan biron odamdan maslahat so'ra. — deb tayinladi. Harakat qilaman, ishonchlaringizni oqlayman, deb va'da berdim.

BIR UMRLIK O'GIT...

Raisning oldidan chiqib, hovlida chaqalog'imni ko'tarib meni kutib turgan onamga ishim bitganini, endi 6 oy davomida sud'ya bo'lib ishlab turishimni aytdim. Onam sud'yaning vazifa-vakolatlarini to'la bilmasa ham davlatning muhim bir organi ekanligi haqiba ma'lum bir tasavvuri borda. Quvondi, yuziga tabassum yugurdi. Chuqur botgan, o'ychan ko'zlaridan g'am ariganday bo'ldi. Bevafo dunyoning g'am-g'ussalari onamning ko'zlariga o'rnashib qolgan edi. Shu paytgacha onamning kulib, tabassum qilib turganini kamban-kam ko'rganman. Forishga qaytdik. Yo'lda kelayapmiz, ko'nglimdan taqdirni qarangi, kechagina azob-uqubat tortib, birovlarining qo'lga qarab turgan odam, endi kimlarningdir taqdirini hal qiladigan ishga o'tdim, degan o'ylar kechdi. Yo'l bo'yi onam bilan yaxshi-yomon kunlarni eslab keldik. Onam rahmatli otam menga yaxshi niyat bilan Unsin deb ism qo'yganii bejiz emasligini, buning ma'nosi o'ssin, ulg'aysin, ulug' martabali Inson bo'lib yetishsin degan maqsadda qo'yganligini aytib berib, ilohim otangning niyatlari ro'yobga chiqayotganligi rost bo'lsin, deb duo qildi. (Onamning aytishicha, haqiqatdan ham mening asli ismim Unsin deb qo'yilganu, keyinchalik Umsun bo'lib o'zgarib ketgan ekan).

Shunda onam rahmatli birdan jiddiy tortib, mening ko'zimga tikilib qarab, qat'iy ohangda Umsun mening gaplarimni qulog'ingga quyib ol, deb gap boshladi: **“o'zing boshingdan o'tkazding, ko'rding, insonning hayoti hech qachon bir maromda, bir tekis o'tmaydi. Goh yaxshi, gohida yomon. Lekin, har qanday paytda ham inson o'zgarib ketmasligi, o'zining insoniyligini yuqotmasligi shart. Boyib ketasanmi, kambag'al bo'lib yashaysanmi, rahbar bo'lasanmi yoki oddiy xizmatchimi farqi yo'q, odamlarga munosabatingni o'zgartirma. Bugun qanday inson bo'lsang, ertaga ham xuddi shundayligingcha qol. Maboda taqdiring kulib, katta amal va martabalarga erishsang ham, aslo kechagi kuningni unutma. Boshqalarni hurmat qil, shunda izzat topasan. Bolam unutmagin, bu yolg'onchi dunyoda o'z nomiga dog' tushirmagan insongina baxtli bo'ladi. Bordiyu, to'g'ri va haq yo'ldan ozib, egri yo'lga ketsang, odamni o'ziga ohangrabo kabi tortadigan, biroq hech kimga vafo qilmaydigan omonat mol-dunyoga, yaltiroq yolg'onlarga mahliyo bo'lsang, shubhasiz la'natga yo'liqasan. Qadr-qimmatning yo'qoladi. Or-nomusingni o'sha narsalarga sotgan bo'lasan, senga birov ishonmaydi. Halollik hamisha insonga sharaf keltirgan. Men umrim bino bo'lib, yolg'on-yashiq bilan murodga yetgan odamni bilmayman. “Yolg'onning taxtdagi ming yil davroni, haqiqat aytilgan bir damcha bo'lmas” deb bejiz aytishmaydi. Onam mendan rozi bo'lsin, desang vijdongingni pok saqla. Birovning haqini zinhor-bazinhor ema. Nohaq birovni o'ksitma”, — dedi.**

Onam rahmatli garchi maktab yoki institutda tahsil olmagan bo'lsada, o'zlari ko'p narsani biladigan, kayvoni ayol edilar. Xotirasi juda mustahkam bo'lib, maqol va matallarni yodlaridan chiqarmasdi. Bilmadim, o'zi bu hayotdan ko'p ozor chekkani uchunmi, nihoyatda beozor inson edi. Kamsuqum, birovning ko'ziga tik qarab yoki birovga baqirib-chaqirganini men ko'rmaganman. Bu dunyoning qancha azoblarini tortgan bo'lishiga qaramasdan, juda uzoq umr ko'rib yashadi. Onam rahmatli 1896-yil tug'ilgan bo'lsa, 1981-yilda olamdan o'tgan. Keyinchalik men bilan birga yashadi. Ko'p baxtli kunlarni o'tkazdik. Yaratganga shukrona aytishni kanda qilmasdi. Kambag'alchilik va qahatchilikni boshidan o'tkazgan onam, ro'zg'orda hech narsani isrof qilishga yo'l qo'ymasdi. Mabodo nevaralari ovqatni oxirigacha yemasa yoki ozgina noni bo'lsada isrof qilsa, tutoqib ketardi. Va boshidan o'tgan qora kunlarni ularga aytib berardi.

DASTLABKI SUD ISHIDAN CHIQRILGAN HAYOT SABOG'I

Forishga kelib, ZAGSning hujjatlarini ham o'zim bilan olib, sudning idorasida vaqtincha sud'ya bo'lib ish boshladim. Yaxshiyamki, oldin ham sud ishlariga qatnashib yurib, sudni o'tkazish tartibini unchamuncha bilaman. Lekin, xudodan har kuni so'raymanki, nima bo'lsa ham og'ir jinoyat bilan bog'liq, murakkab ish (delo) kelib qolmasin! Sud'ya sifatida birinchi ko'rgan ishimni ham eslayman. Mayda

bezorilik qilib (xuliganlik) jinoyat sodir etgan bir odamni sud qilayapmiz. U kishi qamoqqa olingan. Xudoyberdiev degan ijrochi bor edi, U kishi menga bezorilik qilgan odamni qamoqdan chiqarib yuborish kerak, deb aytadi. Men o`ylayman, bu xuliganlik qilgan bo`lsa, qanday qamoqni bekor qilib, uni chiqarib yuboraman. O`zim yaxshi bilmaganimdan keyin, ijrochi bilan ham hisoblashib ishlashim kerak. Ikkinchi tomondan ijrochi qayta-qayta buning uchun siz gap eshitmaysiz, hech narsa qilmaydi, deb meni aldadi. Xullas, uning qistovi bilan ikkilana-ikkilana uni qamoqdan ozod qilish to`g`risida qaror chiqardim. Hozir boshqa tafsilotlari aniq yodimda yo`q, qanday bo`lmasin ijrochi niyatiga ershdi. Keyin bilsam, ijrochi bezorilik sodir etgan odamning qarindoshlariga uni qamoqdan chiqarib yuborish bo`yicha va`da bergan ekan. Hamma zamonda ham nafsining quliga aylangan odamlar borda. Afsus, buni sal keyin tushunib yetdim. Oxiri yaxshi bo`lmadi, bu shi bo`yicha prokuror protest keltirib, obsudning qarori bilan bekor qilindi. Noto`g`ri qaror chiqargan ekanman. Xudo haqqi ta`magirlik yoki biron-bir pulli manfaatdorlik uchun bunday qaror qabul qilganim yo`q. Tajribasizligim oqibatida faqat ijrochi bilan qanday bo`lmasin 6 oy kelishib ishlashim kerak, teskari bo`lib qolsam, keyin o`zimga yomon bo`ladi, deb qo`rqanman. Shunda ijrochidan juda qattiq xafa bo`ldim, lekin foydasi yo`q. Ijrochining bu ishidan ranjib, prokuror Ismoil akaning oldiga bordim tushuntirdim. Ismoil aka mening vaziyatimni tushunib, menga ichi achib, bir og`iz maslahat so`ramabsanda, bezorilik sodir qilgan odam oldin ham sudlangan ekan, shuning uchun protest kiritmasam bo`lmaydi, dedi. Prokurorimiz juda bilimli, kayvoni inson edi. Uning yuqorida menga aytgan maqolining naqadar to`g`ri va hayotiligiga men keyinchalik ham ish jarayonimda juda ko`p amin bo`ldim. Bu xato menga bir umrlik dars bo`ldi. Obsudning raisi ham mening yoshligim va tajribasizligimni inobatga olib, kechirdi. Ikkinchi marta bunday xatoga yo`l qo`ymang, agar kelajakda ham sud`ya bo`lib ishlayman desangiz, bironovning gapiga uchmang, har bir ish bo`yicha o`zingiz mustaqil qaror qabul qiling, yeti o`lchab bir kesing, deb nasihat qildi. Keyin nikohdan ajratish bo`yicha ishlarni ko`rdim. Bu fuqarolik ishlari unchalik murakkab bo`lmaganligi uchun belgilangan tartib bo`yicha qonuniy qarorlar chiqardim. Forishda kon (rudnik) bor edi. Ishchilari asosan rus millatiga mansub odamlar. Hali rus tilini unchalik mukammal bilmaganligim sababli, ular bilan bog`liq ishlarni ko`rib chiqishga rosa qiynalдим. Aksiga olib, shu olti oylik sud`yaligim davomida kon ishchilari sodir etgan huquqbuzarliklar bo`yicha ham bir nechta ishlarni ko`rshga to`g`ri keldi. Shunda menga sud`yalik kasbidagi birinchi ustozim Arslon Karimovning (u kishi O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti rahmatli Islom Abdig`anievich Karimovning akalari edi) maslahatlari va yordami juda qo`l keldi. Jizzax shahrida sud`ya bo`lib ishlardi. Keyinchalik Gulistonda ham ustozim bilan birga ishladik. Rus tilini juda mukammal bilardi. O`ta bilimli, qat`iyatli, bir so`zli, halol va pok odam edi. Har qandai murakkab ishga oqilona yechim topib berardi.

Utenov o`qishdan qaytgancha 6 oy qanday o`tganligini bilmayman. Yelkamda juda og`ir yuk bilan shu muddatni o`tkazdim. Men uchun shu olti oy katta maktab bo`ldi. Katta-kichik xatolarga yo`l qo`ygan bo`lishim mumkin, lekin keyingi 26- yil davomida sudga raislik qilishimga ana shu olti oy poydevor vazifasini o`tagan, desam hech qanday mubolag`a bo`lmaydi...

ZAGS mudirasi bo`lib ishlagan paytlarimda ham oson bo`lmagan. Forishning hududi tog`li, qir-adirli bo`lib, qishloqlar juda tarqoq joylashgan edi. U davrda Nurota tumanining ham bir qismi bizning tumanga qarardi. 1958-yil tug`ilgan katta o`g`lim Sobirjon qo`limda uch oylik chaqaloq. Tuman markazidagi 120-130 km uzoqlikdagi qishloqlarga komissiya qilib borib, o`sha joylarda yashaydiganlarga nikoh guvohnomasini berib kelamiz. O`sha olis qishloqlarga o`g`limni ko`tarib, qo`shnimizning 7-sinfidagi o`g`lini (Sobirjonga qarab turish uchun) yuk mashinasining ustiga chiqarib olib borardim. Xaftalab sovxozning idorasida yashab, nikohdan o`tuvchilarni komissiyadan o`tkazib, ularga guvohnomalarni topshirardik. Qishloqlardan ham chiqib, cho`ponlarning fermalarigacha borib, nikohdan o`tkazardik. U zamonlarda odamlar hujjatlariga unchalik e`tibor berishmasdi. O`sha joylardan tuman markaziga guvohnoma olaman, deb kelmasdi- da. Shuning uchun o`zimiz borardik. Bir safar Nurotadan qaytayotganimizda yo`lda mashinamiz buzilib qoldi. Qishning sovuq kupi. Qani endi yo`ldan bir mashina o`tsa, qorongu tushib ketdi. Kechasi bilan ko`chada qolib ketdik. Shunda o`g`lim Sobirjon qattiq kasal bo`lib qoldi. O`pkasi shamollagan ekan. Bir o`limdan qoldi.

TOSHKENTGA, OLIY YURIDIK TA'LIMGA YO'L

Oradan olti oy o'tgach, Utenov o'qishdan qaytib keldi. Men u kelganicha ko'rgan ishlarim bilan tanishdi. Xato-kamchiliklarimni ko'rsatdi. Baribir ko'ngli to'ldi shekilli, — Umsun sen oliy ma'lumotga ega bo'lishing kerak. O'qishga bor, hali yoshsan. Hayot oldinda, oliy ma'lumot olmasang bo'lmaydi, — dedi. — O'zim senga yordam beraman. Toshkentda yuridik fakul'tetning dekani ayol kishi, men uni taniyman, shunga borib mening yuborganimni aytasan, dedi. Utenovning maslahati bilan Toshkentga yuridik fakul'tetning sirtqi bo'limiga boradigan bo'ldim. Xo'jayinimning qarindoshlaridan biri Toshkentda yashardi. Amal-taqal qilib Toshkentga bordim. Utenov aytdi dekanga uchrashib, uning salomini yetkazdim va o'qishga kirishimga yordam so'radim. Dekan opa uzun bo'lyi, kelishgan rus ayoli ekan. Utenovni eshitib, hujjatlarimni so'radi. O'sha davrda o'qishga qabul qilish tartibi ham juda sodda ekanda, o'sha dekan opa mendan imtihon oldi. Suhbatlashdi. Men rus tilini ham mukammal bilmasamda, uncha-buncha bilaman. Savol-javobdan keyin, xodimlaridan birini chaqirib, mening hujjatlarimni berdi. Shunday qilib yuridik fakul'tetga sirdan o'qishga kirdim. Bir yilda ikki marta aprel va dekabr oylarida Toshkentga o'qishga borib kelaman. 1963-yil 2-kursga o'tganimdan keyin, ZAGS bo'limidan Forish tuman Ijtimoiy ta'minot bo'limiga nafaqalar tayinlash bo'yicha yo'riqchi-mudira lavozimiga ishga o'tdim. Boshqa ishga o'tganim bilan sud proseslarida qatnashib turaman. Bir kuni sudga borsam, Xo'jakeldi aka — Umsun Forish tumani tugatish to'g'risida Hukumatning qarori chiqdi. Rayonimiz tugatildi. Samarqandga, Jizzaxga, Nurotaga bo'lib-bo'lib qo'shib yuborildi. Men ham Samarqandga Payariq tumaniga nachalnik militsiya bo'lib ishga ketayapman, — dedi. Oradan 3-4 kun o'tib, ishxonamizning hujjatlarini ham arxivga topshirish bo'yicha xat keldi. Ijtimoiy ta'minot bo'limiga o'tganimga endi ikki yil bo'lgan. Ishdan shu tariqa bo'shadim. Yaxshiyamki o'sha paytda sirdan o'qiyman. To'g'risi, buning uchun qayg'uranim yo'q. Nasibamiz qayerga qo'shilgan bo'lsa, o'sha yerda ishlaymiz, deb qo'ydim. O'shanda men partiya a'zosi va yosh bo'lsamda kichkinagina partiya tashkilotining ham sekretari edim. Ko'nglim to'q, ishsiz qolib ketaman, deb ko'p o'ylayman. Shu davrdagi siyosatga ko'ra, partiya a'zosi ishsiz qolmasligi kerak. Tuman rahbariyati menga Qishloq sovetining raisi bo'lib ishlaysiz, deb taklif qildi. Bu ish ham og'ir edi. Yosh bolam borligi uchun ishlolmasligimni aytdim. Shundan keyin nasibam qo'shilgan ekan Forish tuman ijroiya qo'mitasi raisi o'rinbosari lavozimiga ishga o'tdim.

Ishlab yuribman, issiq jonning isitmasi bor, deganlaridek shu orada men juda yomon kasal bo'lib qoldim. Yetti oy Samarqand shahrida kasalxonada yotdim. Operasiya bo'ldim. Shifokorlar menga jigar serrozi degan tashxis qo'ydi. Xudoyimga shukur bu hayotda menga juda yaxshi insonlarni yo'liqtirgan. Samarqandda kasalxonada yotganimda nihoyatda oliyjanob bir inson, rus duxtiri mening hayotimni saqlab qoldi. Mening yosh bolalarim borligini bilib, qanday bo'lmasin sen sog'ayishing kerak, bolalaring yosh ekan, bolaligingda ko'p qiynalgan ekansan, endi bolalaring onasiz bo'lib voyaga etmasligi kerak, deb dalda berardi. Chunki, o'sha duxtirga boshimdan o'tkazganlarimni aytib bergan edimda. O'sha odamning menga ko'rsatgan yordamlarini hech qachon unutmayman. Meni u kishi operatsiya qilib, o'limdan olib qoldi. Sog'ayib kasalxonadan keldim.

1966 yil 5-kursda o'qib yurganimda aprel oyida yana Toshkentga o'qishga keldim. Bir momoning kvartirasida 8 kishi turamiz. Aprel oyining oxirlari kunlar ham isib qolgan. Tashqarida hovlida edik, bir mahal yer qimirlab qoldi. Juda qattiq silkindi. Hamma vahimaga tushgan, qayerga qochishni bilmaymiz. O'zimni o'ylaganim yo'q, onam bilan Forishda qolgan qizlarim ko'z oldimga keldi. Shu payt ular qayerda ekan, nima bo'ldi, tinchmikan, deb sarosimaga tushdim. U payt bugungiday telefon, aloqa qayerda, deysiz. Shu kecha umuman uxlamadim. Tongni bir balo qilib ottirdim. Ertasi kuni bildimki, xudoga shukur onam ham, bolalarim ham tinch ekan. O'qishni tugatib, oliy ma'lumotli diplomni olib, Forishga qaytdim.

“YOMON ARIDA BOL BO'LMAS”

Taqdirni qarangi, men birinchi marta vaqtincha olti oy sud'yalik qilgan paytimda yoshligim va tajribasizligimdan foydalanib, o'zining shaxsiy manfaati uchun meni yo'ldan urib, noto'g'ri qaror

chiqarishimga sababchi bo'lgan ijrochi Xudoyberdiev bilan yuridik fakultetda birga o'qidik. U kishi oxirgi kursda Yo'ldosheva degan ayol domlanning imtihonidan o'ta olmadi. Bilimi ham o'ziga yarasha ekan. Maqtanish bo'lmasin-u men institutda ham a'lo baholarga o'qiganman. Hech kimning yordamisiz zachyot va imtihonlarni o'z vaqtida a'lo baholarga topshirardim. Chunki, tinimsiz o'qirdim, izlanardim. Maqsadim yaxshi yurist bo'lish edi. Yaxshi o'qiganligim sababli ko'pchilik o'qituvchilar bilan munosabatim ham juda yaxshi edi. Imtihondan o'ta olmagan Xudoyberdiev majbur bo'lib, — Umsun sen ayol kishisan va Yo'ldosheva bilan ham munosabating yaxshi. Mening imtihondan o'tishimga yordam bermasang bo'lmaydi, sharmanda bo'laman, — deb iltimos qildi. Uning holatini tushunib, Yo'ldoshevaning uyiga borib, imtihondan o'ta olmagan Xudoyberdiev mening yurtdoshim, birga ishlaymiz, ish jarayonida menga yordam beradi (aslida teskarisi), deb yaxshilik uchun yolg'on gapirdim. Yo'ldosheva ham to'g'ri qabul qilib, sen uchun unga imtihonni qayta topshirishga yordam beraman, tayyorgarlik ko'rib, ertaga fakultetga borganimda oldimga kirsin, dedi. Domlagi minnatdorlik bildirib, kvartiraga qaytdim. Ertasi kuni Xudoyberdiev imtihonni topshirdi. Keyin eshitdimki, Yo'ldosheva uni qo'llab-quvvatlab, qiynamasdan osongina savol beribdi. Xullas Xudoyberdiev ham biz bilan birga institutni tomomladi. Lekin, shu odam menga yana yomonlik qildi. Forish tuman sudining raisi bo'lib ishlab yurgan paytlarim mening ustimdan viloyat sudi rahbariyatiga tuhmat va bo'hton bilan "yumaloq xat" yozdi. Bu dushmanligi ham menga hech qanday yomonlik keltirgani yo'q. Chunki, men hamma ishlarni qonuniy ko'rganman. Qonundan tashqari ishlarga qo'l urmaganman. Uning bu ishiga chidab turolmadim, o'ziga "sening ko'zing ko'r bo'ladi, sen odam emassan, o'shanda men homilador bo'la turib, qiynalib, Yuldoshevaning uyini topib borib aytganman, senga qancha yaxshilik qilganman, nimaga menga bunday yomonlik qilasan", dedim. Yolg'on gapirardi, shunda ham men yozganim yo'q, palonchi qildi, pismadonchi qildi, deb bo'yniga olmadi. Qing'ir ishning qiyig'i qirq yilda chiqadi. deb bejiz aytishmaydi. O'shanda Xudoyberdiev meni bezorilik qilgan odam yaqin qarindoshim, yordam bermasam bo'lmaydi, deb aldagan. Aslida hech qanday qarindoshi emas ekan. Oradan ancha yillar o'tib men chiqartirib yuborgan o'sha "bezori"ning yaqin qarindoshlaridan biri, ijrochi Xudoyberdiev ulardan ancha-muncha narsa olganligini aytib berdi.

Birovga nohaq yomonlik qilgan yaxshilik topmas ekan, shu odamning "oxiri" yaxshi bo'lmadi. Qariganda ko'p azob-uqubat chekdi. Ularni aytib berish shart emas...

FORISHGA SHAROF RASHIDOV KELDI!

Yodimdan chiqmaydi. 1969 yil juda qattiq qish bo'ldi. Odamlarga ham, chorvaga ham, chorvaga ham haddan tashqari og'ir keldi. Qishning qattiqligidan Forishda 100 mingdan ortiq qo'y nobud bo'ldi. Men Rayispolkom raisining o'rinbosariman. Raykom sekretari meni Forishning cho'l hududi bo'lgan Qizilqumning Chimqo'rg'on sovxoziga vakil (upolnomochniy deyilardi) qilib yubordi. U sovxozning chorvasi juda ko'p, rayisi Sosialistik mehnat qahramoni edi. Juda hurmatli, o'ta bilimdon kishi. Qorning qalinligidan umuman texnika yurolmaydi. Menga rahbar topshiriq bergan, bormasam bo'lmaydi, bir balo qilib sovxozga yetib bordim. Qo'ylar sovuqdan qirilib ketgan. Shunda cho'ponlarga yordam uchun tanklar keldi. Qor ustiga to'xtovsiz qor yog'adi. 1-1,5 metr bo'lib ketgan qorni boshqa texnikalar surolmadi, faqat tanklarning kuchi yetar ekan. Tank qorni kuraydi, qor bilan qo'shilib uning ostidan muzlab qolgan son-sanoqsiz qo'ylar chiqadi. Sara-sara, semiz-semiz o'lib qolgan qo'ylarni ko'rib, ichingiz achiydi. O'sha qishda men birinchi marta tabiatning oldida inson ojiz, nochor qolishini ko'rganman va his qilganman.

Ming azob bilan bu qahraton qishdan chiqdik. Ko'klam keldi. Raykom sekretarimiz, Rayispolkomning rayisi va boshqa rahbarlar qishda o'lmay qolgan qo'ylar uchun yem-xashak izlab ketgan. Raykomning qaysidir bir bo'limning oddiy mutaxassisi bilan Rayispolkomda men qolganman. Ish qaynaydi. U paytda Jizzax Sirdaryo oblastiga qo'shilgan. Obkomning ikkinchi sekretari Filosenko degan rus kishi telefon qilib, qishda Forish tumani bo'yicha qancha mol o'ldi, cho'ponlarning qancha qo'rasi buzildi va shunga o'xshagan yana besh-oltita ma'lumotlarni tezlikda, bir soat ichida tayyorlab berishni so'radi. O'sha paytda bu ma'lumotlarni bir soat ichida emas, bir haftada ham qilib bo'lmadi.

Qish endi tugagan. Hali fermerlarga chiqib, ko`rib kelish imkoni bo`lmagan bir payt. Men u kishiga sharoitni tushuntirmoqchi bo`ldim. Tasavvur qiling, hozirgiday telefon yo`q, fermalar juda olis, u so`ragan ma'lumotlarni bir soat ichida tayyorlab berish, absurd...

Qarasam, meni umuman eshitishni istamaydi. — Men hech narsani bilmayman, sharoitingni tushunmaman, ko`p gapirmaganda ma'lumotni ayt, bo`lmasa ishdan bo`shaysan,-deb juda qo`pol muomala qildi. Telefonda gaplashayapmanu, g`azabim oshib, qaltirab ketayapman. Juda jahlim chiqdi. O`zimni bosolmay, menga sening ishing kerak emas. Xohlasang, hozir bo`shayman, deb jahl bilan telefon go`shagini qo`ydim. Kech bo`ldi, uyga ketdim. Ertasi kuni ishga keldim. Yana rahbarlardan hech kim yo`q. Baribir ishning mas'uliyati bor, kecha obkomdan so`ragan ma'lumotlarni bilish uchun endi Qizilqumga jo`nayman, deb turganimda Chimqo`rg`onning raisi Moyisov kelib qoldi. Bu odamni menga xudoning o`zi yetkazdi. Xudoning mehribonligiga qarang, u kishining qo`lida o`zining sovxoz bo`yicha qishda o`lib ketgan qo`ylarning ma'lumoti bor ekan. Uni oldim va Moyisovdan Qizilqumda o`lgan qo`ylar bo`yicha ma'lumot bormi, deb so`radim. Raislar bir-biri bilan gaplashib turadida, Qizilqumning raisi unga o`lgan qo`ylarning taxminiy sonini aytgan ekan. Ikkalasini qo`shib, Sirdaryo obkomiga telefon qilib ma'lumotni aitdim. Shunday qilib, qiyin vaziyatdan chiqdim. Raykom sekretari Sarsenboy Yesimov kelib, bo`lgan voqeadan xabar topib, menga rahmat aytdi. O`rni kelganda, shu inson haqida ham fikrlarimni aytib o`tganim ma'qul. U kishi bilan 22 yil birga ishlaganman. Forishga uch marta Raykom sekretari bo`lib kelgan. Yaxshi odam edi. Ayniqsa, yoshlarni tarbiyalashni yaxshi ko`rardi. Xarakterini yaqindan bilardim, dir gapni aytdimi, shuni bajartirardi, ayrganini qildirardi. Bir so`zli inson edi. Olamdan o`tib ketdi, joylari jannatdan bo`lsin.

O`sha yili bahor juda seryog`in keldi. Forishning dala-dashtlari gullab-yashnab ketdi. O`t-o`lanlar odamning beliga uradi. Aprel oyining qaysidir chisosida Qizilqumga (geroyning sovxoziga) O`zbekiston Kompartiyasining birinchi sekretari rahmatli Sharof Rashidov va Oliy Sovet raisi Yodgora Nasriddinova keladigan bo`lishdi. Shunda menga raykomimiz Yesimov Sharof Rashidov kiradigan chaylani tayyorlashga mas'ul ekanligimni buyurdi. Juda e'tibor bilan tayyorgarlik ko`rdik. O`shanda birinchi marta Sharof Rashidovni ko`rganman. Rahmatli xizr ko`rgan odam ekan. Yuzi tiniq, muomalamadaniyati juda yuksak, hamma odamlar bilan qo`l berib ko`rishib, samimiy suhbatlashdi. Forishliklarning ko`nglini ko`tardi.

NAJOT - VIJDONDA

1969 yil yoz oylari. Men rayispolkom raisining o`rinbosari bo`lib ishlab yuribman, bir paytning o`zida raykomning byuro a'zosiman. O`sha paytdagi Forish tuman sudi raisining ustidan "Sovet O`zbekistoni" gazetasiga xat tushibdi. Unda yozilishicha, tumandagi tashkilot rahbarlaridan birining ikkita oilasi bo`lgan ekan, bittasi bilan janjal qilib, urishib qolibdi. O`sha xotin erining ustidan sudga da'vo arizasini kiritib, unga tegishli bo`lgan mol-mulklarni olib berishni so`rabdi. Javobgar tashkilot rahbari bilan sud'ya yaqin do`st bo`lib, birga ulfatchilik qilib yurar ekan. Shuning uchun xotinning da'vo arizasini ko`rmasdan, uni-buni bahona qilib, ishni ko`rishni orqaga tashlab kelayotgan ekan. Da'vogar bu ishni sud'ya atayin ko`rmay kelayotganining sababini bilib, ushbu tafsilotlarni ham qo`shib, "Sovet O`zbekistoni"ga ariza yuborgan. Bu masala raykomning byurosida ham muhokama qilindi. O'blsud raisining o`rinbosari Shermat aka Umarov ham ushbu byuro yig`ilishida ishtirok etayapti. Men ham byuro a'zosi (1967-yildan 1975-yilgacha 8-yil raykomning byuro a'zosi bo`lganman) sifatida qatnashayapman. Sud`yaning o`zi ham bor. Byuroda Shermat aka sud`yaga juda qattiq gapirdi. "Uyalmaysizmi, shunday mas'uliyatli ishda, ishxonada aroq ichish mumkinmi? Qanday insonsiz, siz qanchadan-qancha odamlarning taqdirini ichib, mast bo`lib hal qilasizmi? Bu nima began gap, deb achchiqlanib, ayamay yuziga iytib tashladi. Yana 2-3 kishi gapirdi. Byuroda sud`yaning faoliyatini tanqidiy o`rganib chiqish uchun komissiya tuzildi. Raykom sekretari Yesimov ham sud`yaning bu hatti-harakatlaridan xafa bo`lib, komissiyaga bugunning o`zida sud`yaning ish faoliyatini tekshirishni boshlashni buyurdi. Byuro tugashi bilan komissiya a'zolari sudning binosiga borib, sud raisi o`tirgan xonani ko`zdan kechirishni boshladik. Tekshirishni xonasidan boshlaganimiz bejiz emas. Sababi,

tumanda o`shi sud`ya ko`p aroq ichadi, xonasida ham ichkilikbozlik bo`ladi, degan mish-mishlar yurardi. Baxtga qarshi sud raisi o`tiradigin joyning orqa tomonidagi shkafdan aroqning 3-4 ta bo`shab qolgan idishlari va ochilib, yarmi bo`shagan aroq chiqdi. Boshqa xat-hujjatlarini ko`rdik. Kamchilik ko`p. Shu tariqa sud raisi ishdan olindi.

SUD`YALIKKA NAVBATDAGI QADAM

Endi bo`shagan sud`yaning o`rniga kimnidir sud`ya qilib tayinlash kerak. Raykom sekretari Sarsenboy Yesimov men oliy ma'lumotli yurist bo`lganim, oldin ham qisqa muddat sud`ya sifatida ishlaganim uchun meni sud`yalikka tavsiya qildi. Yuqorida aytib berganimdek, oldin ham 6 oy sud`ya bo`lib, rosa quynalganman. Sarsenboy akaga e'tiroz bildirib, sud`ya bo`lib ishlay olmasligimni aytdim. Biroq, tumanda sud`yalik lavozimida ishlaydigan, oliy ma'lumotga ega yurist mutaxassis ham yo`qda...

Usha payt sud`yalar saylanar edi. Saylov bo`ldi, meni sud`ya qilib saylashdi. Yana vaqtincha 3 oylik muddatga sud`ya bo`lib ish boshladim. Ishni sudning binosi va hovlisini obodonlashtirishdan boshladim. O`sha payt bahor fasli bo`lganligi uchun daraxt ekdim, binoning u joy-bu joyini imkon darajasida ta`mirladim.

To`g`risi, bu ishlarni birovga qildirganim yo`q, chunki bunday ishlarni o`zim qilib o`rganganman. Uch oylik muddat o`tdi. Keyin meni viloyat sudi raisi Tolib aka Mahmudov oldiga chaqirib, endi Forish tuman sudiga rais bo`lib ishlaysiz, deb tavsiyanoma berdi. Hujjatlarimni qo`limga tutqazib, Oliy sudga borib, tasdiqdan o`tib kelishimni aytdi. Unda obsud Sirdaryoda. Tolib akaning oldidan chiqib, Toshkentga jo`nashdan oldin bir piyola choy ichib olish maqsadida viloyat sudining qarama-qarshi tomonida joylashgan oshxona (столовой)ga kirdim. Kirsam, kichikroq bir xonaning to`rida mendan oldin sud`ya bo`lib ishlagan odam, kim bilandir ovqatlanib o`tiribdi. U kishiga ko`zim tushishi bilan ko`nglimdan bir yomon fikr o`tdi. Hoynahoy bu odam bekorga viloyat sudiga kelmagandir, deb o`yladim. Ovqatlanmasdan qaytib chiqib ketish noqulay. Ularga e'tibor bermay, ovqatlanib bo`lib Toshkentga jo`nadim. (Bo`shagan sud`yani ko`rib ko`nglim bejizga g`ash bo`lmagan ekan. Buning tafsilotlarini ozgina keyinroq aytib o`taman.)

Toshkentga kelib, Oliy sud binosiga kirdim. Aniq yodimda, u paytlar Oliy sudning binosi ham hozirgiday qo`riqlanmas edi. Binoga kiradigan joyda hech kim yo`q, bimalol ichkariga kirib bir odamga nima maqsadda kelganimni va qo`limdagi hujjatlarimni ko`rsatdim. U kishi darrov tushundi va meni Oliy sud raisining o`rinbosari Siddiqovning oldiga olib kirdi. Keyin Siddikov bilan birgalikda Oliy sud raisi Po`latxo`jayevning qabuliga bordik. Oliy sud raisi meni yaxshi muomala bilan kutib olib yosh ekansiz, ayol kishisiz o`zingiz Forishliksiz. Tuman aholisini bilasiz, menga ma`qul o`ylaymanki, siz ishlab keta olasiz, deb rozilik bildirdi, muvaffaqiyat tiladi. Raisning qabulidan chiqib, endi ketaman deb turganimda, ko`zim eshikka yozib ko`yilgan Muhitdinova Halima Kadirovna degan yozuvga tushdi. Qarasam, Oliy sud raisining o`rinbosari deb yozib qo`yibdi. Ayol kishi ekan, tanishib, salomlashib ketayin, deb oldiga kirdim. Halima Kadirovna ham meni juda iliq kutib oldi. Tanishganimizdan keyin, "Siz ayol kishisiz, sud`ya bo`lib ishlash nihoyatda mas'uliyatli va qiyin. Bu hayotda har xil yaxshi va yomon odamlar bilan duch kelasiz, murakkab vaziyatlar bo`ladi. Ehtiyot bo`ling, nima bo`lganda ham adolat tomonda turing. Birovga jabr ham qilmang, yordam ham bermang, lekin bu oson emas. Men ham onaman, Zafar ismli bitta o`g`lim bor, nrokuraturada ham, adliyada ham, partiyada ham ishlaganman. Yaxshi-yomon kunlarga, ayniqsa juda ko`p to`siqlarga duch kelganman. Xudoga shukur hammasini yengib o`tganman. Qayerda ishlamayin o`g`limning kelajagi uchun halol ishlaganman, onalar farzandlarining kelajagi haqida qattiq qayg`urishi shart", deb samimiy maslahat berdi.

Forishga kelib ishni boshladim. Uchinchi kuni ertalab ishga kelsam, viloyat sudi raisining kotibasi telefon qilib, "Sizning ustingizdan Raisga ariza tushgan, viloyatga yetib kelsangiz"dedi. Hali ishni boshlab-boshlamasdan bu nimasi bo`ldi endi, deb viloyat sudiga bordim. Rais ishxonada yo`q ekan. Kotiba qiz Rais kelguncha ariza bilan tanishib turing, deb arizani menga berdi. Arizada "biz bir guruh o`qituvchilar Umsun Astanovaning sud`ya bo`lib ishlashiga qarshi emasmiz-ku, lekin uning hukmlari

tuman prokurori Suyundiqovning ko`rsatmasi bilan chiqmasmikan?! ” deb yozilgan. Shu payt viloyat sudining raisi Shermat aka men o`tirgan xonaga kirib kelib salomlashgach, birdan "Astanova tuman prokurori Suyundiqov sizning kimingiz bo`ladi. U kishi bilan qanday qarindoshsiz? ",dedi. Men hayron bo`ldim va hech qanday qarindoshligim yo`q, faqat bitta tumandanmiz, deb javob berdim. Shermat aka mening gapimga ishonmadi va "biz aniqlasak, maboda biron yaqin qarindoshingiz bo`lib chiqib, yolg`on gapirganingiz uchun sharmanda bo`lmaysizmi? ” - dedi. Ishonmaganiga jahlim chiqib, — Shermat aka men to`g`ri gapni yashirib, vijdonimni sotadigan ayol emasman, istaganingizcha tekshiring, marhamat — dedim.

-Ikkinchidan, men o`zim chopib, tanish-bilishchilik qilib sud`ya bo`lganim yo`q. Sud`ya bo`lib ishlamayman desam ham Raykom sekretarimiz majburlab, ishlamasangiz bo`lmaydi, deb tavsiyanoma berdi. Sizga sud`yalik kerak bo`lsa, hozir meni ishdan bo`shating, lekin menga bunday muomala qilmang. Uchinchidan, bu arizaning yozilganligini Toshkentga ketayotgan kunim sezgan edim. Ishdan bo`shagan sud`ya nima qilishini bilmasdan, alam bilan menga bo`hton uyushtirayapti,- dedim o`zimni bosolmay. Shermat akaning ham menda ozgina alami bor edi. Sababi, uch oylik vaqtincha ishlab turganimda, meni baribir sud`yalikni eplay olmaydi, deb o`rnimga Zomin tumanining ijrochisini sud`ya qilib tayinlash uchun olib kelgan edi. Tuman rahbariyati, jumladan prokurorimiz Suyundiqov ham Zomindan keladigan ijrochining sudya bo`lib ishlashiga qarshilik qilgan. Ehtimol, shuning uchun Shermat Umarov prokuror Suyundiqov bilan meni qarindosh, deb o`ylagan bo`lishi mumkin. Mening bunday keskin gapirganimni ko`rib Shermat aka tushunib, -bo`ldi borib ishingizni davom ettiravering, qonuniy ishleng, xato qilmang, Raisga o`zim vaziyatni tushuntiraman, — dedi. Shu bo`hton qilib yozilgan ariza menga boshqacha kuch berdi. Demak, shuncha dushmanlarim bor ekan, men qanday bo`lmasin yorug` yuz bilan ishlashim kerak, deb o`zimga-o`zim so`z berdim. Hamma ishimni qayta-qayta sinchiklab tekshirib, aqlni ishlatib, ming marta o`ylab ishladim.

Tuman hududi juda kengayib ketgan. Qozog`istonning uchta aholi yashash punkti Omonkeldi, Arnasoy, Yerembetov qishloqlari Forishga qo`shilgan paytlar. U qishloqlar Forishdan 140-150 km uzoqlikda joylashgan. Kimnidir sud ishiga guvoh sifatida jalb etadigan bo`lsak, uning kelishi bir azob edi. Uni chaqirib so`ramasangiz, ish bo`yicha asosli qaror chiqara olmaysiz. O`rtada katta ko`l bo`lganligi uchun ular suvdan bir balo qilib o`tishi kerak yoki kichkina samolyotda (kukuruz) uchib kelishi kerak. Tomonlar kelishga qiynalganligi uchun ko`pchilik hollarda sudga kelmasdi. Ichki ishlar xodimlari orqali katta qiyinchilik bilan majburan olib kelardik. Ba`zan o`zimiz ham qo`shqanot samolyotda o`sha qishloqlarga borib sayyor sud tashkil qilardik. Shu qishloqlarga borish uchun dastlab Qozog`istonning Paxtaoroliga, keyin Yettisoy degan joyiga, undan keyin Omonkeldi, Arnasoy, Yerembetovlarga yetib borardik. Bir safar Yerembetov qishlog`ida sud jarayoni o`tkazadigan bo`ldik. Belgilangan kuni samolyotda yetib bordim. Ayblanuvchini ushlab turidigan maxsus panjarali xona bo`lmaganligi uchun, javobgar qochib ketibdi. Ichki ishlar xodimlari uch kun uni qidirdi. Birinchi, ikkinchi kunlari qochib ketgan ayblanuvchi tonilmagandan keyin tuman nachalnik militsiyasi menga qamoqqa olish to`g`risidagi ehtiyot chorasini o`zgartirib berishimni iltimos qildi. Men qat`iy turib hech qachon bunday qaror chiqarmayman, qayerdan bo`lmasin izlab topasilar, bo`lmasa uni qochirib qo`ygan mas`ul xodimlarga ham chora ko`rish masalani hal qilaman, dedim. Oxiri ichki ishlar xodimlari javobgarni Qozog`iston chegarasidagi cho`ponning uyidan tonib keldi. U paytlar sudni tashkil qilish oson emas edi. Ish jarayonida bunga o`xshagan qiyinchiliklar juda ko`p bo`lardi. Hozirgi qishloq fuqarolar yig`inlari (Selsovetlar deyilardi) raislari, uchastkavoylar bilan hamkorligimiz yaxshi yo`lga qo`yilgan edi. Ishni shunday tashkil qilmasak, boshqa imkonimiz bo`lmasdi.

“MASLAHATLI TO`Y TARQAMAS”

Adolatli va qonuniy sud qarorlarining chiqarilishida sud maslahatchisining o`rni muhim. Faoliyatim davomida maslahatchi ishtirokisiz ishni ko`rib chiqmaslikka harakat qilganman. Sud raisi bo`lib ishlagan paytda Forish tumani bo`yicha sudning 75 ta maslahatchisi bor edi. Ularni shunchaki sud maslahatchisi deb nomiga yozib qo`ymaganman. Har birini tanlab-saralab olardim. Masalan davlat mulkini talon-taroj

qilish (rastrata) ishlariga alohida buxgalteriyani, hisob-kitobni yaxshi biladigan mutaxassisni topardik. Ajrim, nikohni bekor qilish ishlariga tumanda obro`-e'tibori bor, tinch-totuv yashayotgan oila vakilini maslahatchi qilib jalb etardim, Boshqa ishlarga ham aqlli, bilimli, mulohazali insonlarni tanlab olardim., Har bir qishloqdan ikkitadan yoki uchtadan. Qaysi hududda sud o`tdigan bo`lsa, 3-4 kun oldin ularni ogohlantirib aytib qo`yardim. Hozirgiday telefon qayerda, qishloqlardan kimdir Forishga kelsa, u orqali yoki pochta bilan telegramma yuborardik. Tanlab olsangiz ham ularning hammasi bir xil mas'uliyatli emas edi. Chunki, ular sudga ishtirok etsa ham moddiy manfaatdor bo`lmasdi. Ularga oylik ish haqi berilmasdi. Shuning uchun ba'zi bir maslahatchilar ishim ko`p, sog`lig`im yaxshi emas, deb tayinlangan pTrotsessga kelmasdi. Shunday paytlar ishni ko`rishni qoldirishga yoki kechiktirishga majbur ham bo`lardik. Yuqorida aytib o`tganimdek, davlat mulkini talon-tarj qilish (rastrata) bilan bog`liq ishlarni ko`rib chiqish og`ir edi. Mutaxassisligi buxgalter, hisob-kitob ishlarini juda yaxshi biladigan Gulnoraxon degan maslahatchim bor. Hozir 83 yoshda. Shu maslahatchim bilan 20 yil birga ishladik. Juda ko`p ishlarni ko`rib chiqishda menga sidqidildan yordam bergan. Unga ishonardim.

Hozir ham sud`yalar, shogirdlar bilan sud ishlari bo`yicha gaplashib turaman. To`g`risini aytishim kerak, bugungi kunda sud maslahatchisi o`rini va roli talab darajasida emas. Tasavvur qiling, sud`ya turli toifadagi sud ishlarini ko`rib chiqadi. Hamma sohaning ham o`ziga xos xususiyatlarini mutaxassislar darajasida bilmasligi, tabiiy. Shuning uchun ba'zi murakkab ishlarda maslahatchi fikr-mulohazalariga muhtojlik sezadi. Fikrimcha, sud maslahatchisi faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqish kerak. Sudda maslahatchi rasmiyatchilik uchun qatnashmasligi kerak. Xalqimiz bejiz "maslahatli to`y tarqamas" deyishmaydi.

HALOLLIK, FIDOIYLIK VA MAS'ULIYAT FAQAT OLQISH KELTIRADI

Prosess boshlanishidan oldin yuragim tipirchilab turardi. Sud ishtirokchilari, tomonlar, guvohlar, advokatlar, ishga jalb qilinganlar yoki maslahatchilar vaqtida kelarmikan, deb vahima bosaverardi. Hamisha belgilangan tartibni buzmaslikka harakat qilganman. Batta bezorilik bo`yicha ishni 10 kun davomida ko`rishga majbur bo`lganman. Sodir qilingan ish holatining barcha tomonlarini chuqur o`ylardim, mushohada qilardim. Bitta ishni ko`rib tamom qilmagunimcha, boshqa ish ko`rishga o`tmaganman. 52 yoshli bir ayol kishining ishini ko`rganman. Ishga doir hujjatlar 200 betlik (delo) edi. Ayol kishi bu jinoyatni qanday sodir qilgan?! Qanday majbur bo`lgan, ipidan-ignasiga o`rganganman.

1969 yil mart oyida Forish tuman sudi raisi bo`lib saylangan bo`lsam, birinchi muddat uch yil ishladim. Uch yildan keyin yana uch yilga saylandim. Undan keyingi safar besh yil muddatga, ikki marta saylandim. 16 yil sud raisi bo`lib ishlaganimdan keyin, 1985 yilga kelib, sud raislarini viloyat kengashi sessiyasida tasdiqliydigan yangi tartib o`rnatildi. Viloyat sudi mening hujjatlarimni yangi tartib bo`yicha navbatdagi muddatga tayyorlagan. Viloyat kengashi sessiyada tasdiqdan o`tishim kerak. Shunda menga bir guruh odamlar tomonidan dushmanlik boshlandi. Forishdan "do`st" larimdan biri Zafarobod tumaniga borib, ancha oldin men ko`rib chiqqan ish bo`yicha kimnidir topib, "mendan ta'magirlik qilib pora so`radi, so`ragan pulni bermaganim uchun, menga nisbatan adolatsizlik qildi", deb xalq deputatlari viloyat kengashiga ariza yozdiribdi. Bu bo`hton ham "do`st" larim kutgan natijani bermadi. Viloyat kengashining sessiyada meni 10 yillik muddatga Forish tuman sudining raisi qilib tasdiqladi. Taqdir qilgan ekan shunday qilib 1995 yilgacha 26 yil davomida Forish tuman sudi raisi bo`lib ishladim.

O`zbekiston SSR Adliya vaziri Mamlakat Sabirovna Vasiqova har yili Respublika bo`yicha barcha sud raislarini Toshkentga chaqirib, yig`ilish o`tkazardi. Yaxshi ishlagan sudyalarga sovg`a-salomlar berardi. Bir safar katta zalda Mamlakat Sabirovna menga rag`batlantirish tariqasida radio sovg`a qildi. U kishi ko`pchilikning ichida "sud qarorlari eng kam bekor qilingan, ayol bo`la turib, adolatli qarorlar chiqargan. bir so`zli, qat`iy, namuna ko`rsatib ishlayotgan hamkasblarimizdan biri" deb rosa maqtadi. Hamma qarsak chalib, meni olqishladi. Avvalo, shuncha sud`yalar orasidan menga qaratilgan e'tibordan, undan keyin bir chiroyli radio-ku, ko`chada qo`yib ham eshitib ketaverasiz, o`shani menga sovg`a sifatida berilganligidan quvondim. Undan keyingi yil eng namunali sud`ya, deb Moskvich mashinasini berdi.

60 yoshga kirganimda pensiyaga chiqdim. 60 yoshga to'lishim munosabati bilan SSSR Adliya vaziri V. I. Terebilovning imzosi bilan uzoq yillar sud tizimida samarali faoliyat ko'rsatganligi uchun, deb yozilgan Faxriy vorliq berildi.

“UMSUN SUD”NING HAYOTIY HAQIQATLARI

Hayotim bir xil kechmagan. Taqdir meni ko'p sinovlardan o'tkazdi. Ochlik sillamni quritib, bir burda nonga zor bo'lgan paytlarimni ko'p ko'rdim. Aytib berganimdek, bolalik va o'smirlik chog'larim kemtiklik, ayriliq, azob-uqubatlar bilan kechdi. Xudogo shukur, keyingi hayotimda ro'shnolik kunlarini ham ko'p ko'rdim.

Chorak asrdan ortiqroq vaqt tuman sudi raisi bo'lib ishlagan bo'lsam, ayolligimni, onaligimni hech qachon yoddan chiqarmaganman. Ustimga kiyishga kiyim, oyog'imga botinka topilmagan kunlarni unutmaganim uchun, men hech qachon kiyim-kechakka, bashang kiyinishga, zeb-ziyatga o'rganishga qiziqmaganman. El qatori, odamlardan ajralib turmasligim uchun borini kiyib ketaverganman. Sudning raisi bo'lib ishlab yurgan paytlarimda ham dehqonchilik qilishni tashlamadim. Yer olib unga uzum, olma ekardim. Yer bilan ishlashni juda yaxshi ko'raman. Qaniydi, hozir ham jonim yarasa, kuchim yetsa, dehqonchilik qilsam, deyman. Afsus, mening yoshimda buning imkoni yo'q. Bir voqea yodimga tushdi: o'shanda ham sud raisi bo'lib ishlardim. Bolalarimiz ulg'ayib qolgan, ularni uyli-joyli qilishimizga to'g'ri keldi. O'zimiz yashayotgan joy torlik qilib qoldi. Dam olish kunlarining birida xo'jayinim bilan ikkimiz yashab turgan uyimizning yonidan kichkinagina uy qurmoqchi bo'lib, loy qorib, devorlarini suvoq qilayotgan edik. Yangi ish boshlagin tuman tashkiloti rahbarlaridan biri menga ishi tushib, uyimizga izlab kelibdi. Loyga botib ishlab yotibmiz. — Umsun opaning uyi shumi, menga sud'ya opa kerak edi, chaqirib yuborasizmi, — deb o'zimdanda so'rayapti. Keling, nima gap, Umsun opangiz menman, desam ishonmaydi. — Hazillashmang, Umsun opani tezroq chaqirib qo'ying, shoshib turibman, ketishim kerak, deydi. Ishonmaganiga jahlim chiqib, ishingiz bo'lsa, aytib bo'lmasa, ishimizga xalaqit bermang, jo'ng bu yerdan, dedim. Jiddiy gapirganimdan sergak tortib, "kechirasiz opa, sud raisi hech qachon loyga botib, bunchalik og'ir ishlarni qilmasa kerak, deb o'ylab, tasavvurimga sig'dira olmadim", dedi...

Turmush o'rtog'im Shaharov Xolyigit nihoyatda yaxshi inson edi. Bu ham taqdir ekan, u kishi 1986 yil 57 yoshida yurak xurujidan vafot etdi. 4 ta qiz, 2 ta o'g'il ko'rib, ularning hammasini oliy ma'lumotli qilib o'qitdim. Katta o'g'lim Sobirjon davlatning turli idoralarida ishladi. Ko'p yillar tumanimizdagi "O'zbekiston" mahalla fuqarolar yig'ini raisi bo'ldi. Odamlarning og'irini yengil qildi. Kichik o'g'lim menga o'xshab huquqshunoslik kasbini tanladi. Prokuratura organlarida, soliq tizimida va majburiy ijro byurosida el qatori ishladi. Qizlarimdan biri ham oliy ma'lumotli yuridik mutaxassisligini olib, bugungi kunda ham men kabi Forish tuman FXDY bo'limi mudirasi bo'lib mehnat qilmoqda. Nevaralarimdan biri Ja'farjon ayni paytda fuqarolik ishlari bo'yicha Forish tumanlarida sudida sud'ya yordamchisi bo'lib ishlaydi. Shu nevaramga kelajakda sen sud'ya bo'lishing kerak, deb ko'p maslahat beraman. Lekin, bunga osonlik bilan erishib bo'lmasligini, buning uchun tinimsiz, o'qishi va izlanishi lozimligini tayinlayman. Sudning binosi juda tabarruk joy, sudga odamlar adolat izlab keladi, ularga insoniy muomalada bo'l, deb deyarli har kuni tayinlayman. Tasodif bilan yoki tanish-bilishchilik orqali lavozimga erishgan insonlar uzoq ishlay olmasligini, faqat o'zining halol mehnati bilan lavozimga erishish kerakligini uqtiraman. Inson kamtarlik bilan kamol topishini aytaman.

SO'NGI SO'Z YOXUD DUNYONING ENG KATTA BOYLIGI

Hayotim davomida boshimdan o'tkazgan voqea-hodisalar, ko'rgan-kechirganlarim, turfa taqdirlarga guvoh bo'lganlarimdan xulosa qilib aytadigan bo'lsam, banda bu dunyoning o'tkinchi ho-yu-havaslariga uchmasligi kerak. lekin, tabiatan Ko'pchilik insonlap yaxshi yeb-ichib, yaxshi kiyinib, qo'yib bersa, shohona yashashga moyil bo'lishadi. Bu har bir bandaga xos xususiyat. Odatda zahmat kechib,

mashaqqatli hayot bilan kun kechirishni, loaqal boriga shukur qilishni istamaydi. Achinarlisi, ayrim odamlar nafsining quliga aylanadi. Nafsining quliga aylanib, holi voy bo'lgan taqdirlarni juda ko'p ko'rdim. Sud'yalik lavozimi ham shunday kasbki, uni yo'ldan uruvchilar ko'p bo'ladi. Vijdongiz nafsingizdan ustun kelsa, huzur-halovat bilan yashab, hamisha yuzingiz yorug' bo'ladi. Yuzi yorug'lik ham bu dunyodagi eng katta boyliklardan biri. Sizlarga hamisha yuzi yorug'likni tilayman...

HAYOT SINOVLARIDA TOBLANGAN ONA!

Bayram UZOQOV,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
Jizzax viloyatidagi Xalq qabulxonasi mudiri

Mehnat faxriysi, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan huquqshunos", chorak asrdan ziyodroq davr tuman xalq sudining raisi bo'lgan ayol-Umsun Astanova to'g'risida ko'p eshitgan edim-u, bu ulug' inson bilan birga ishlash, suhbatidan bahramand bo'lish, 2001 yilning oktyabr oyida Forish tumani hokimi lavozimida faoliyat boshlaganimdan keyingina nasib qilgan. Lavozimga kirishganimdan 2-3 kun o'tib tuman faxriylaridan maslahat olish niyatida bir guruh oqsoqol va kayvonilarni taklif qildim. Ularga qo'shib 3-4 nafar "yozuvchi" va guruhbozlarni chaqirdikki, zero, yaxshi suhbat, yangi rejalar va ko'rsatilgan hurmat-e'tibor ularning mafkurasiga ham ta'sir etib, ijobiy tomonga o'zgarib qolishsa. Uchrashuv juda qiziqarli, barchaning faolligida, bahs-munozaralarga boy tarzda o'tdi. Tumandagi vaziyat, to'planib qolgan muammolar o'rtaga tashlandi. Ularga birgalikda yechim qidirildi. Shunda Umsun opa so'z olib, "mana tuman xalqini qiynab kelayotgan qancha muammolar bor, maktab, bog'cha va shifoxonalarimiz abgor ahvolda, ichimlik suvi bilan ta'minlashdagi vaziyatdan odamlar juda norozi. Barchamiz birgalashib mana shu masalalar bilan shug'ullanishimiz zarur. Shaxsiy manfaatni ko'zlab yozuv-chizuv qilishga barham berish kerak. Chunki shu xatlar orqasidan bo'ladigan tekshir-tekshirlar, keldi-ketdilar hammaning vaqtini oladi. Undan ko'ra umummanfaat yo'lida taklif berib, ularni amalga oshirishga bosh qo'shaylik", degan edi. Ishtirokchilar bu gaplarni ma'qullashdi. Dono xalqimiz aytganidek gap egasini topdi va ular ham tushunishdi.

Shu mashvaratdan keyin Opa bilan ko'p hamsuhbat bo'lib, yaqindan tanishdim. O'zining hayot yo'lini aytib berar, har-har zamonda yig'lab ham olardi. Chunki u kishining ko'rgan azobu sitamlarini uncha-muncha erkaklar ham ko'tarishi qiyin darajada bo'lgan. Faraz qiling, hali suyagi qotmagan go'dak qiz maktabda o'qish o'rniga ona bilan dalada o'tin yig'ib, tunlari g'allasi o'rib olingan maydonlarda moshqoq (yerga tushgan boshqoq yoki uning bir bo'lagi) terib yurgan. O'n uch yoshligida hammomda ko'mirning kulini tashib, farroshlik qilgan. Tuni bilan hammomning ich qismlarini yuvib, ertangi kunga tayyorlagan.

So'ngra shu hammomning yonginasida ko'prik qurilishi boshlangan. Qo'shimcha daromad topish umidida erkaklar qatori zambil ko'targanlarini, bu holatni ko'rib qolgan tumanning birinchi rahbari Murod Jo'raevning ko'rsatmasi bilan boshqa ishga o'tkazilganligini aytib bergandi.

Bir suhbatimizda, "ukajon, rahbarlarga, asosiysi xalqimizga ming- ming rahmat, bir paytlar qorni nonga to'ymagan mushtipar qizni o'qitib, tarbiyalab respublika taniydigan darajadagi odamga aylantirdi. Xudoga shukur qilaman. Kuchim yetganicha shu xalq xizmatida bo'laman", degan edi. Va, bu va'dasiga bugun ham sodiq qolmoqda.

Bir kuni amaki opam (Izzat opamni xudo rahmatiga olsin) bilan suhbatimizda Umsun opani eslab, u kishidan eshitganlarimni aytib bergan edim. "Bu rost. Men u bilan teng yoshdaman. Bolaligimda Nori otamnikiga borganimda Umsunni hammomda ishlayotganini ko'p ko'rar edim. Usti yupun, oyog'idagi kalishi abgor ohvolda bo'lar edi. Ko'p qiyinchilik ko'rib o'sgan ayol. Lekin, o'sha azoblari evaziga uni xudo yorlaqab, mana shunday hurmatga sazovor qildi", degan edi.

Bu eshitganlarimdan keyin u kishiga hurmatim cheksiz darajaga yetdi va biz hamkorlikda ishlay boshladik.

Yuqorida zikr qilingan uchrashuvimizda aytib o'tganimday, tumanning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli boshqa hududlardan ancha orqada qolib ketgan edi. Ayniqsa, uch yillik qurg'oqchilik odamlarni charchatgan, chelaklab suv sotib olishga majbur qilgan ekan. Hatto, ko'pchilikda boshqa joylarga ko'chish fikri tuzila boshlagan ekan. Bundan xabar topgan o'sha vaqtda viloyat hokimi bo'lgan muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev yoz oylarida viloyatda mavjud suv tashiydigan avtomashinalarni Forishga yuborib aholini suv bilan ta'minlashni tashkil etgandi. Mana shularni inobatga olib, tez kunlarda aholini ichimlik suvi bilan ta'minlashni birinchi vazifa qilib (belgilab oldik va o'rinbosarim Norbek Egamov hamda suv idorasi mutaxassisi bilan suv inshootlarining faoliyatini joyiga borib o'rgandik, hisob-kitob qildik. Unga binoan har kuni suv yig'ish hovuziga kamida 1000 kub metr suv to'planishi mumkin ekan. Lekin, bu suv hovuzga yetib kelmas emish.

Shundan keyin, Umsun opa bosh ayollar brigadasini tuzib, barcha tarmoqdagi vaziyatni o'rgandik va hech kimni ayamasdan noqonuniy ulangon va suvdan maqsadsiz, eng achinarlisi bir so'm pul to'lamasdan foydalanayotgan "abonent" larni hammasini tarmoqdan uzib chiqdik. Albatta, noroziliklar, yozuv-chizuvlar, tahdidlar bo'ldi. Lekin, OPAning qat'iyatligi va brigada a'zolaridagi suvni hovuzga yig'ib, barchaga navbat bilan yetkazib berish mumkinligiga bo'lgan ishonchi bilan 25-30 kun ichida tartib o'rnatildi va aholiga suv yetkazib berildi. Eng asosiysi hech qanday millionlar sarf qilinmasdan, bu o'ta murakkab ish opalar yordamida uddalandi. Bu esa, o'z navbatida, boshqa muammolarni ham hal qilsa bo'lar ekan, degon xulosaga olib keldi va tumanda uyg'onish davri boshlandi.

Opaning yana bir tashabbusi haqida to'xtalib o'taman. O'sha yili, uch yillik qurg'oqchilikdan keyin, 15-oktyabr kuni peshindan o'tib yomg'ir yog'ib boshladi va qoriyb bir sutka to'xtovsiz yog'di. Ertalab opa bilan ko'rishganimizda yomg'ir bilan tabriklab, xudodan yog'ingarchilikni bardavom qilishini so'rab duo qildi va gap boshladi. "Agar, ob-havo shunday dovom etsa, xudo bahorini ham bersa, ichishga ham, ekin-tikinga ham suvni yetkazsak bo'ladi, uka" dedi. Shu gap bilan ichimlik suvi uchun Nurota tog' tizmalaridagi "Yong'oqlisoy" darasidagi mavjud buloqlar suvini to'plab (kooptaj qilib) hovuzga olib kelishni tiklash, barcha ariqlarni tozalash hamda miroblarni tayinlash orqali oqar suvni navbat bilan tarqatish rejasi ishlab chiqildi va opaning jonbozligi bilan erta bahordon bu ishlar ham boshlanib ketdi. Opa dugonalari bilan hovlima-hovli yurib, hammani o'z arig'ini tozalashga, mirobning ruxsatisiz suvga tegmaslikka da'vat qilib chiqdi va bu borada ham ijobiy natijaga erishdik. Eng quvonarlisi agar xalqning ko'ngliga yo'l topib bilsak, uni boshqarish mumkinligiga ishonchimiz yanada ortdi.

Umsun Astanova xotin-qizlar qo'mitasi rahbari Gulnora Ismoilova bilan ishchi guruh tuzib, qishloqlarda uyma-uy yurib ayollari va bolalar muammolarini o'rganib, sayyor yig'ilishlarda o'rtaga tashlar va birgalikda yechimi ustida ishlar edik. Shu orqali qancha-qancha xotin-qizlar salomatligi tiklandi, qanchasi o'qishlarini davom ettirdi, qancha bolalarga u yoki bu ko'rinishda yordamlar berildi, qanchadan-qancha oilalar ajrim yoqasidan qaytarilib, yarashtirildi. Bunda Umsun opaning boy hayotiy va uzoq yillar FXDE (fuqarolik holatlari dalolatnoma yozuvlari) va xalq sudi tizimida ishlab, orttirgan tajribasi qo'l keldi, desam ayni haqiqat bo'ladi.

Umsun Astanova jamoatchilix ishlarida faolligi bilan bir qatorda o'zining asosiy ishi "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasi tuman bo'limi rahbarligini ham benuqson bajarib borardi. Viloyat va respublikadagi hamkasblari bilan gaplashib, ko'plab doru vositalari va bolalar uchun zarur bo'ladigan anjomlar keltirar va adolat bilan mahalla-yu, shifoxonalarga tarqatar edi. "Nima qilsam ham, shu xalqimga nafim tegsa bo'ldi", degan gaplari hammamizga ibrat maktabi bo'lgan.

Onaxonning vatanparvarligi, tug'ilib o'sgan tuprog'iga mehr-oqibati, daraxt ekish, bog' yaratish qon-qoniga singib ketganligini yana bir misolda ko'rishimiz mumkin. 2019 yilning ko'klamida tuman markazida yangi istirohat bog'ini barpo etish maqsadida tuman hokimi Abduvalijon Mustanov tashabbusi bilan hashar uyushtirildi. Yoshu-qari yuqori kayfiyatda, havas va yaxshi niyat bilan ko'chat

o`tkazishga kirishib ketishgan, ularga mehnat qahramoni Qobil Alqarov, uzoq yillar davomida tuman o`rmon xo`jaligini boshqargan, usta bog`bon Kamol Ibodov kabi bir qator nuroniylar maslahat berishib, boshqarib turganiga O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasidan kelgan mehmon Narzulla Naimovich Oblomurodov bilan birgalikda guvoh bo`lganmiz. Shu orada, 87 yoshli Umsun opamiz katta tog`ora ko`tarib, (albatta nabiralari yordamida) kelib qoldilar. "Hormanglar. Hasharni eshitib, uyda o`tira olmadim. Mana bundan tatib ko`ringlar", deb tog`ora o`ralgan dasturxonni ochib, hasharchilarni somsa bilan mehmon qildi. Va yangi bog`da yaxshi duolar qilib, o`z ko`chatini o`tqazdi.

Umuman olganda, onaxon bog`da ishlashni yaxshi ko`radigan va bu yumushning sir-sinoatini chuqur biladigan inson, deb bilaman. Suhbatlarimizda tokni (uzum ko`chati) qay vaqt, qanday qilib ekish kerak, qishda qaysi agrotexnik tadbirni, ko`klam va yozda qaysi birini amalga oshirishni aytib berar edi. Pishiqchilik paytlari ishxonaga olma, shaftoli va uzum olib kelib, xodimlarimizni siylardi.

Umsun opada insoniylik, oqibat kuchli edi. Men 2010-yil iste'foga chiqqanimdan keyin qisqa fursatda sadoqatlari haqida qasam ichgan ayrim "odamlar" o`zina chetga oladigan bo`lib qolishdi. Lekin, opa aloqani uzmedi. Yeta olmagan paytlari telefonda hol-ahvol so`rab turdi. Bir kuni uyga kelsam uydagilar dasturxonga juda chiroylik uzum qo`yishdi va "buni Umsun opangiz sizga yuboribda" deyishdi. Men darhol opaga qo`ng`iroq qilib, "men sizdan xabar olish o`rniga, siz meni yo`qlabsiz", deb xijolatli bir holatda minnatdorchilik bildirdim. Shunda opa "e, aylanay, men buni bozordan sotib olibmanmi? O`zingiz ko`rgan bog`dan. Nabiralarning og`zi tegsin degandimda. Sizlarni sog`indim", deb Forishcha shevada o`z onalik mehrini izhor qildi. Bunday oqibatlilikdan boshim osmonga yetgan. Ana o`shanday vaziyatlarda inson sovg`a yoki tuhfa qadrli emas, asosiysi e'tibor, qadrli insoniylik ekanini teran anglar ekan.

Hayotning ne-ne uqubatlarini boshidan kechirgan, o`ziga topshirilgan har qanday vazifa va topshiriqlar mas'uliyatini chuqur his etgan holda bajarishga o`rgangan Umsun opaning intiluvchanligi, doim o`z ustida ishlashi, bilimga ishtiyoqi, tinmay o`qib-o`rganishi, eng asosiysi odamlarga, insonga qayishib yashashi ham xalqi, ham davlat rahbariyati tomonidan yana bir bora munosib baholanib, 2005-yil birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov farmoniga asosan "Shuhrat" medali bilan taqdirlandilar. Bu yuksak mukofotni onaxonning uyiga vilayat hokimi bilan birga borib topshirish boxtiga muassar bo`lganman. O`sha marosimda opa "men umrimning oxirigacha xalqimga - vatanimga xizmat qilaman". deb va'da bergan edi. Hozirgacha shu va'dasiga sodiq holda tuman hayotida o`z maslahatlari bilan faol qatnashib kelmoqda.

Opa namunali oilaning farishtasi, Bekasi. Farzandlarining barchasi o`qimishli, el koriga yarab kelishmoqda Ishonchim komil, shunday ulug`ona tarbiyasini olgan farzondlar eliga, vataniga sodiq bo`lishadi va o`z zuriyotlarini ham shu ruhda tarbiyalaydi. Oila sohibi, Umsun opaning turmush o`rtog`i marhum Xolyigit aka Shaharov ajoyib ustoz, o`ta madaniyatli, o`qimishli inson edilar. U kishi maktabimizda ishlagan davrda meni o`qitgan. Ustozni atrofdagilar bilan gaplashishiga, kiyim kiyishiga, yurish-turishiga hammamiz havas qilardik. Kiyim boshiga, hatto, o`sha davrda ham, tufli-siga gard yuqmasdi. Bir og`iz so`z bilan aytganda, biz o`spirin yigitlarga andozo edi. Bunda ham, albatta Umsun opaning xizmati borligini endi tushunib etayapmiz....

EI NAZARIDAGI INSON

Ubaydulla MINGBOEV,

O`zbekiston Sud`yalar assotsiatsiyasi raisi.
O`zbekistan Respublikasida xizmat ko`rsatgan yurist.

Agar odamzod dunyoda ikki marotaba yashaganida edi u keyingi davrda albatta faylasufona kun kechirgan bo`lar, oldingi hayotidan olgan saboqlari unga shunday umrguzaronlikni tortiq qilgan bo`lar edi. Bir marta beriladigan umr davomida esa faqat oqil insonlargina odobli farzandlar, zukko shogirdlar, go`zal bog`-rog`lar, ya`ni solih amallar kabi o`zidan yaxshi iz qoldiradi. Bir so`z bilan

aytganda, yaxshi inson umrbo`yi xizmat qilgan sohasida o`z tajriba maktabini yaratadi. Shogirdlari "falonchi ustozning maktabini o`taganmiz", deya faxr bilan eslab yurishadi.

Bugungi kunda bizga zamindosh odamlar orasida ham o`zining ana shunday katta ibrat maktabini yaratgan shaxslar yashaydilar va ular talaygina. Umsun Astanova huquqshunoslik sohasida, xususan sud`yalik borasida hayoti o`z shogirdlariga saboq bo`larli ustozlardan biridir. Agar bugun go`zal Forishning qaysiki qishlog`iga borib Umsun Astanova haqida so`rasangiz suhbatdoshingizning yuzi yorishib, uni ta`riflashga tushadi. Keksayu yosh u kishini yaxshi taniydi, biladi. Albatta bu bejiz emas. Butun umrini sud tizimi sohasiga bag`ishlagan Umsun Astanova adolat yo`lida qilgan xayrli ishlari bilan ana shunday e`zoz va e`tirofga sazovor bo`lgan mo`tabar insonlardan sanaladi.

Boshidan ko`p qiyinchiliklarni o`tkazgan Umsun Astanova atigi 13 yoshda mehnat faoliyatini boshlashga majbur bo`lgan. Dastlab farroshlikdan boshlangan ish faoliyati keyinchalik buxgalter,FXDY bo`limi mudiri, tuman ijtimoiy ta`minot bo`limi inspektori, xalq deputatlari Forish tuman ijroiya qo`mitasi raisi o`rinbosari kabi mas`uliyatli lavozimlarda davom ettirgan. 1969 yildan Forish tuman sudining raisi sifatida ish boshlab, uzluksiz 26-yil davomida ushbu mas`uliyatli vazifada ishlagan. Ana shu yillarda el dardini o`z dardi deb bilishi, sud`ya sifatida kishilarning taqdiriga katta mas`uliyat bilan yondashishi uni o`z elining suyukli qiziga aylantirdi. Alohida e`tiborga molik tavsifi shundaki u qiyin damlarda ham o`zini ojiza sanamagan. Har bir mushkulotlarga matonat va oqilalik bilan yengib o`tgan. Aslida Ayol- Yaratganning nozik xilqati, tabiatan nafis mavjudod, fitratan bir tomondan nazokat timsoli deb ta`riflanadi. Biroq ikkinchi tomondan jamiyatga eng ta`sirli qudrat va favqulodda jasorat manbasi hamdir. Oiladagi muhit, farzandlar tarbiyasi odatda ayolning oqilaligi bilan bevosita bog`liq. Uning qudrati sarhadi shu bilan yakun topmaydi. Tarixda jamiyat hayotini o`zgartirgan To`maris, Bibixonim va Nodirabegim kabi buyuk siymolar borki, ularning biri ulug` saltanat hukmdori, mohir qo`mondon bo`lsa, boshqasi Sohibqiron Jahongirga ma`naviy suyanch bo`lgan, yana boshqasi adabiyot sohasining yirik namoyondasidir. Bundan tashqari ilm- ma`rifat beshigi bo`lgan yurtimizda fiqh, hadis, tafsir va aqid yo`nalishlarida ham bir qator olimalar yetishib chiqqan. Xususan, XI-XII asrlarda Movarounnahr fiqh maktabining yirik vakili. O`rta Osiyo hanafiylarining buyuk imomlaridan biri, o`z davrining yetuk faqih Alouddin Muhammad ibn Ahmad Samarqandiy (vaf. 1145 y.)ning qizi «buyuk faqiha» nami bilan mashhur Fotima binti Muhammad haqidagi ma`lumotlar fiqh tarixida alohida ahamiyatga ega. Qolaversa, yaqin tariximizni ko`z oldimizga keltiradigan bo`lsak o`tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab yurtimiz huquqshunoslari safi ilmli ayollar hisobiga kengaya bordi. Adliya, Oliy sud tizimida Xadicha Sulaymonova, Mamlakat Vosiqova, Halima Muhitdinova kabi adolatni shior qilgan ayollarimiz sud-huquq tizimida o`zlarining munosib o`rinlariga ega bo`ldilar va mazkur kasb borasida o`zlarining tajriba maktablarini yaratdilar. Ana shunday buyuk ustozlarning davomchisi sifatida Umsun Astanova ham odil sudlov sohasida o`z o`rniga, o`z salohiyatiga ega tabarruk insonga aylandi.

Sud`yalik nihoyatda sharaflil maqom bo`lish barobarida o`ziga yarasha og`ir va mashaqqatli kasb. Sud`ya adolatli qaror qabul qilishda barcha dalillarni chuqur tahlil qilishi, har tomonlama xolisona va qonuniy to`xtamga kelishi lozim. Ayol sud`yalar nozik oilaviy munosabatlar va majburiyatlar sohibasi sifatida hayotiy tajribasidan o`z kasbiy faoliyatlarida foydalanadi. Bu esa, nafaqat adolatli qarorlar qabul qilish, balki ushbu qarorlar qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligini hisobga olishga zamin yaratadi. Shu bois sud tizimida ayollar faoliyatining murakkabliklari bir talay. Ana shu qiyinchiliklarni mardona yenga olgan, ishni, oilani birdek olib bora olgan ayolgina bu yo`nalishda muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Umsun Astanova ana shu xususiyatlarni o`zida mujassamlashtira olgani uchun ham bugun tizimning muhtaram kayvonisiga aylandi.

Shu o`rinda sud-huquq sohasida ayol sud`yalarining o`rni borasida ikki og`iz so`z. Bu masalaga nafaqat mamlakatimizda, balki dunyo miqyosida jiddiy e`tibor qaratilmoqda. Tizimda gender tengligi masalasi bugunning dolzarb masalasiga aylangan. Ma`lumotlarga ko`ra, hozirgi paytda dunyoda sud`yalar orasida ayollarning ulushi 45 foizga teng. O`zbekistonda ushbu ko`rsatgich 16 foizni, Qazog`istonda 51%, Rossiyada 66%, Sloveniyada 70%, Portugaliyada 75% ni tashkil etadi.

O'zbekistonda islohotlarning yangi bosqichi aynan sud-huquq sohasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ushbu jarayonlarda xotin-qizlarning o'zni alohida ahamiyatga ega. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev BMT Inson huquqlari kengashining 46 sessiyasidagi nutqida O'zbekistan va BMT o'rtasida gender tengligiga erishish sohasida hamkorlikni chuqurlashtirishning yangi jihatlarini belgilab berishi barobarida bu masala davlat siyosati darajasida har doim kun tartibida ekanini ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, yurtimizda amalga oshirilayotgan faol gender siyosati sud hokimiyatini ham chetlab o'tgani yo'q. E'tiborlisi, 2017 yilda ayol sud'yalarining soni 115 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, keyingi yillarda amalga oshirilgan sa'y-harakatlar natijasida bugungi kunda ayol sud'yalarining soni 200 nafarga yaqinlashdi. O'zbekistonda gender tenglikka erishish strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlariga ko'ra, sud'yalar orasida xotin-qizlar ulushini 2025 yilda 20 foizga, 2030 yilda 30 foizga yetkazish nazarda tutilgan. Tizimda ayollar salmog'ini orttirishga e'tibor nufuzli tashkilotlar nazaridan ham chetda qolayotgani yo'q. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2021 yildagi 75/274-sonli Rezolyutsiyasiga asosan 10 mart - Xalqaro ayol sud'yalar kuni deb e'lon qilindi. Bu narsa ham odil sudlov tizimida ayol sud'yalarining o'z o'rniga egaligidan dalolat beradi.

Sud'yalar orasida xotin-qizlar ulushining ortishi ijtimoiy munosabatlarga ayollar nuqtai nazaridan qarash va baho berishga yanada kengroq imkoniyat yaratadi. Zero, ayol sud'ya o'zi ko'rib chiqayotgan nizoli ishdagi ijtimoiy holatlarga ona yoki opa-singil sifatida o'z munosabatini bildiradi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy adolat ta'minlanishiga xizmat qilishiga shubhasizdir.

Bugun 92 yoshni qarshilagan Umsun Astanova ajoyib xotirasi, teran fikrlari bilan hamsuhbatini lol qoldiradi. U sud'yalik kasbining sir-asrorlari, mashaqqatlari to'g'risida soatlab gapirishi mumkin. Millatimiz tarixiga "turg'unlik yillari" nomi bilan kirgan dolg'ali yillarda sud tizimida ishlash nihoyatda qiyinlashgan davrlarda ham Umsun Astanova ta'bir joiz bo'lsa "o'zini oldirmadi". Uning bu xizmatlari mustaqillik yillarida hukumatimiz nazaridan chetda qolmadi va davlatning qator unvon hamda mukofotlari bilan taqdirlandi.

Inson uchun eng muhimi elning nazarida bo'lish, uning mehrini qozonish. Ana shu baxtga erishgan kishilargina o'zini yaratgan tomonidan ato etilgan bir martalik umrni mazmunli o'tkazdim deb hisoblashi mumkin. Umsun Astanova ana shu mukammallikni o'zida jamlagan insondir.

E'ZOZ TOPGAN AYOL!

Savronbek TURSUNOV,
sud faxriysi

Umsun Astanovani maktabda o'qib yurgan kezlarimdan bilaman. Chunki, u paytlarda xalq saylovlari ochiq bo'lardi. Xalq sudiga saylanadigan sud'ya haqidagi ma'lumotlar jamoatchilikka tanishtirilib borilardi. Odamlar ko'zi tushagan joylarga rasmlari joylashtirilardi. Shunday saylovlarning birida Umsun opaning ham rasmi va ma'lumotlarini o'qiganman. Yosh ayol xalq sudining raisi lavozimiga ko'rsatilyapti degan yozuvlarni va keyin ularning sud raisligiga saylanganliklari haqidagi ma'lumotlarni o'qib yoshlik paytimdan ularga havas qilganman. Balkam o'shandan boshlab menda huquqshunoslikka, sud'ya bo'lishga bo'lgan qiziqish paydo bo'lgandir.

Qarangki, oradan yillar o'tib o'sha qiziqish tufayli huquqshunoslik fakul'tetiga o'qishga kirib 1976 yilda uni tugatdim. O'qish jarayonida amaliyot o'tash uchun Forish tumaniga kelganman. Bir oylik amaliyotimizning yarmi prokuraturada, yarmi sudda bo'lgan. Umsun opaning sud jarayonlarini olib borishlarini bevosita sud zalida o'tirib kuzatganman. Shunda men ham sud'ya bo'lar ekanmanmi. Umsun opaga o'xshab sud ishlarini ko'rar ekanmanmi deb havas qilganman. Oradan yillar o'tib o'sha niyatlarim ushaldi. Sud'ya bo'lib saylandim. Keyinchalik sud'ya sifatida ish boshlaganimdan keyin o'sha davrdagi kuzatuvlarim ancha qo'l keldi. Avval viloyat sudining sud'yasi, keyin G'allaorol tuman sudining raisi lavozimida ishlagan paytlari opa bilan birga otladim.

Umsun opaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri erinmasdan tumanning turli chekkalariga borib ham ishlarni ko'rib kelardilar. Men amaliyot davrida va keyin birga ishlash jarayonida ularning duch kelgan

transport vositasiga o'tirib ishlarni ko'rish uchun 200-300 km masofalarga borganlarini ko'p ko'rdim. Umsun opa qo'llariga ish hujjatlarini olib 2-3 kunlab ish ko'rgani ketardi. Ustozimiz shunday charchamaydigan. zabardast haqiqiy sud'ya bo'lgan.

Qarangki, oradan bir necha yillar o'tib taqdir taqozosi bilan Jizzax viloyat sudiga rahbar bo'lib bordim. O'sha paytda ham Umsun opa yoshlari ulug' bo'lsa ham kasbiga sadoqat bilan, ishini sevib, charchash nimaligini bilmay ishlardilar. Men yosh rahbar bo'lishimga qaramasdan hurmatimni joyiga qo'yg'alar. Ish yuzasidan og'irimi, yengilmi qanday topshiriq bersam vaqtida va sifatli qilib bajarganlar. Hattoki xodimlarga topshiriqlar berilgan vaqtida men ayol kishiman, yoshim katta degan firkga borgan emaslar. Yelib-yugurib ishlaganlar. Aytaylik ba'zi paytlari Umsun opaga Baxmal, Mirzacho'l, Zafarobod kabi uzoq-uzoq tumanlardan ish olib berardik. Ular endi yoshim kata bo'ldi avvalgidek uzoqqa bora olmayman. sharoitim yo'q degan vajlarni umuman ko'rsatmasdi. Qo'llariga ishni olardi, ketardi, borib ishni ko'rib, qonuniy hal qilib qaytardilar. Ular shu tartibda ishlardi.

Ko'rilgan sud ishlarining qonuniyligi va sifati yuzasidan viloyat sudi nazorat olib borardi. Shu jarayonlarda Umsun opa chiqargan sud qarorlarining bekor bo'lganligi yoki o'zgartirilganligini eslolmayman. Har bir hukm bo'ladimi, hal qiluv qarori bo'ladimi ularning barchasini asoslantirib, puxta yozardilar Bordiyu ularning ishlari ustidan shikoyat bo'lsa bu shikoyatning o'rinsizligiga tezda oydinlik kiritilardi. Nafaqaga chiqqanlaridan keyin ham ular tinib-tinchigan emas. Tumanning faol ayollaridan bo'lib uzoq yillar ishladilar.

Ustozimiz viloyat miqyosidagi seminar, o'quv kurslari, malaka oshirish kurslarining birontasidan qolmasdilar. Ularda mening shuncha yillik tajribam bor, menga bunday kurslarning keragi yo'q degan xayol yo'q edi. Malaka oshirish kurslarida bilmaganlarini so'rab, bilganlarini aytardi. Eng muhami ular ham huquqiy, ham hayotiy tajribaga ega inson edilarki shuning uchun ham hurmatlari el orasida katta edi. Umsun Astanova judayam mas'uliyatli inson bo'lganlari uchun har bir ishga jiddiy yondashganlar.

Umsun opaning eng asosiy yutug'i bu ularning kamtarligidir. Ular kimga, qanday munosabatda bo'lish kerak, nima deyish kerakligini bilardi. Jabrlanuvchimi, javobgarmi bundan qat'i nazar ular ham inson, derdi. Ustozimiz ularning har biriga o'ziga kerakli gapni ayta olar, dalda bera olardilar.

Umsun opa bir joyda deyarli 6 muddat ishlaganlar. Bu juda katta davr. Bu mamlakatimiz tarixida sanoqli holat. To'g'ri, men ham sud'ya bo'lib uzoq yillar ishladim. Lekin bir joyda emas. U vaqtlari sud'yalar odatda biro' tumanning o'zida bir yoki ikki muddatdan ortiq qolmas edi. Boshqa tumanga yoki boshqa lavozimga o'tkazilar edi. Umsun opaning uzoq yillar Forishda ishlaganliklari va hurmat-e'tiborlarining yuqoriligi u kishining halolligidan, pokligidan kasbiga sadoqatliligidan darak beradi. Ana shu xislatlarni o'zida mujassam etgani uchun ham Umsun opa xalqning ishonchiga kirdi va sevimli kayvonisiga aylandi.

AZMU SHIJOATDA TENGSIZ AYOL

Ahmad ISMOILOV,

"Shuhrat" medali sohibi

Inson ma'lum bar yoshga yetgandan keyin o'tgan umrini sarhisob qilishni boshlaydi. Umri davomida qilgan ishlarini birma-bir ko'z oldidan o'tkazadi. Qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlariga nima sababchi bo'lganiyu, xatolarining doyasi nima ekanligiga o'zi baho beradi. Kasbiga kim tufayli qiziqish uyg'onganiyu erishgan yutuqlarining bosh sababchisi kimligini ham e'tirof etadi va uni ustoz, deya e'zozlaydi.

Kamina asli Forisida tug'ilib voyaga yetganman va bundan hamisha faxrlanaman. Beg'ubor bolaligim, betizgin o'spirinligim ana shu jannatmakon go'shada kechgan. Bu yurtni mashhur qilgan faqatgina uning tabiati, shirindan-shakar uzumu-mayizlari, purviqor tog'lariyu zilol suvlari emas. Uning dongini dunyoga taratgan sabablardan yana biri ana shu suvlardan ichib, tog'larning salobatidan ulg'u

olib, tabiati jozibasini qalbiga ko`chira olgan qalbi go`zal odamlaridir. Bu qadimiy zamin mamlakatimiz taraqqayotiga juda katta hissa qo`shgan, mashhur insonlarni kamolga yetkazgan. "Katta karvon nedan ko`chsa kichigi ham shu yerdan ko`chadi", deydi dono xalqimiz. Bir-biriga ibrat bo`lib, bir-birini yuksaklikka chorlagan insonlar haqida aytilgan donishmandona fikr, hayotda o`z isbotini topgan.

Mening hayotimda ham ana shunday ibrat bo`lgan, kelajak yo`limni belgilashimda o`ziga xos mayoq vazifasini o`tagan insonlardan biri Umsun Astanovadir.

Bizning u kishi bilan qon-qardoshlik nuqtai nazaridan hech qanday aloqamiz yo`q. Ammo, men esimni taniganimdan so`ng maktab davrimdayoq u kishini taniganman. Sababi, o`sha davrlarda tuman yoki viloyat miqyosidagi ayrim rahbarlarni lavozimga tayinlashdan oldin u haqidagi ma'lumotlar aholi orasida tarqatilardi. Kelajakda kim bo`lish haqida xayol surib yurgan davrlarimda Umsun opa haqida eshitib, o`qib men ham huquqshunoslik kasbini tanladim. Chunki maktabda o`qib yurgan paytlarim opa tumanda sud raisi bo`lib ishlardi. Shuni ishonch bilan ayta olamanki, Forishda Umsun Astanovaga havas qilib yuristlikning etagidan tutgan birgina men emasman. Umsun opani Forishda tug`ilib voyaga yetgan juda ko`plab huquqshunoslar haqli ravishda o`zlarining Ustozi deb bilishadi. Shunisi aniqki, ularning aksariyati Opani shaxsan tanimasligi mumkin, ammo g`oyibdan u kishini o`zlariga ustoz sanaydilar. Bu narsa ham Opa umrining sermazmun va ibratliligidan dalolat.

Huquqshunos bo`lib turli idoralarda, turfa xil odamlar bilan ishlashimga to`g`ri keldi. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki 1991-1994 yillarida Jizzax viloyati Adliya boshqarmasi boshlig`ining birinchi o`rinbosari lavozimida ishlaganimda opaning sud`yalik faoliyati bilan yaqindan tanishish imkoni bo`ldi. Chunki o`sha paytda sudlar faoliyati Adliya tizimiga to`g`ridan-tug`ri bog`liq edi. Sud`yalarni Adliya vazirligi tavsiya qilar (tayinlar), moddiy-moliyaviy tomondan qo`llab-quvvatlardi va sud organlari faoliyatining monitoringini ham olib borar edi. Shuning uchun viloyat sudlari, ulardagi har bir sud`ya faoliyati bilan yaqindan tanishish imkoni paydo bo`ldi. Kimning nimaga qodirligi va qaysi sud`ya qanday ish olib borishi haqida mukammal ma'lumotlarga ega bo`ldim. Yo`nalishim nuqtai nazaridan Forish tuman sudi hamda Umsun Astanovaning sud`yalik faoliyati haqidagi hisobotlar bilan ham juda ko`p tanishdim. Boshqa sud hujjatlari va sud`yalar faoliyati bilan taqqoslaganda shu narsaga amin bo`ldimki, Opaning barcha hujjatlari qonuniy xarakterga ega bo`lardi. Shu bois o`sha davrlarda viloyat, respublika miqyosida bir necha marta Forish tuman sudi Jizzax viloyatidagi eng namunali sudlardan biri sifatida e'tirof etilgandi. Endi o`ylab qaragam buning zamirida Opaning tajribasi, bilimi va qat`iyligi yotgan ekan.

1994-1999 yillarda men ilk bor sud tizimida ishlashimga to`g`ri keldi. O`shanda G`allaorol tumani sudi raisi bo`lib, qisqa muddat Umsun opa bilan yonma-yon tumanda bitta tizimda ishladik. Sohaga yangiligim bois Umsun opadan juda ko`p maslahat so`rar edim va har gal o`zimga mushkul tuyulgan masala yuzasida opadan mukammal javob olar va buni sud qarorlarida samarali qo`llardim. Ishimning natijasini ko`rib har gal Opa menga to`g`ri yo`l ko`rsatganligiga ishonch hosil qilardim. Opa mehnat ta`tiliga chiqqanda Forishga sud`yalik ham qilganman. O`sha paytda Forishliklarning sudga, sud`yaga nisbatan munosabatini ko`rib, Umsun opaga hurmatim bir necha barobar oshgan, qoyil qolganman. Chunki sudga ishi tushgan kim bo`lishidan qat`iy nazar Umsun opani hurmat bilan tilga olar, u kishi to`g`risida nojo`ya fikr bildirmasdi. Bildimki, Opa odamlar orasida sudning obro`-e'tiborini, nufuzini juda yuksaklikka ko`targan ekan.

Yillar har birimizning umrimizga baho beradi. Uning xulosasi esa izdoshlar, yurtdoshlar e'tirofida ayon bo`ladi. Zamondoshlar olqishini olib yillar sinovidan muvaffaqiyatli o`tgan kishigina umrini mazmunli o`tkazdim deya oladi. Umsun Astanova ayol va ona sifatida ham barchaga ibrat. Chunki u kishining tarbiyalagan farzandlari bugun turli sohalarda onasi bergan estafeta tayoqchasini baland ko`tarib, validai muhtaramalariga munosib ekanliklarini isbotlamoqdalar.

Bir so`z bilan aytganda Umsun opa o`zining bilimi, kat'iyati va adolatga yo`ldoshligi bilan, tarbiyali va odobli farzandlari bilan hayotligida o`ziga haykal qo`ydi va boshqalarni ham shunga undadi.

ORZUNING RO`YOBI

Jumagul PO`LATOVA,

sud faxriysi

Onam bir kuni Forish tumaniga to`yga boradilar. Shu davrada gavdali, baland bo`yli, salobatli Umsun opani ko`radilar. O`sha paytda 40 yoshlardagi Umsun opaning chiroyli va mazmunli suhbatlarini, atrofidagilarning u kishini hurmat qilishlarini ko`rib onam mening ham qizim huquqshunos bo`lsin, ilohim Umsun Astanovaga o`xshab sud raisi bo`lsin, ilmi bo`lsin, deb orzu-niyat qilganlar. Ana shu orzuning ro`yobi sifatida vaqti-soati yetib onam va ustozlarimning duolari bilan men huquqshunoslik fakultetiga o`qishga kirdim, sud`ya, sud raisi bo`ldim.

Keyinchalik Jizzax viloyatida 10 yil ishlagan paytimda Umsun opa, bilan juda ko`p uchrashdim. O`shanda men kassasiya instansiyasida kotib edim. Sud ishlarining ustidan kelgan shikoyatlar bilan ishlardim. Ana shu jarayonlarda shikoyat qilingan ishlarning yillik sarhisobini qiladigan bo`lsak, Umsun opaning sud ishlari ustidan kamdan-kam shikoyatlar kelganligiga amin bo`lardik. Kelganda ham bekor bo`lganlari yo`q edi. Nima uchun? Bu opa chiqargan qarorlar ustidan kishilarning rozi bo`lganligini bildiradi.

Shuningdek, turli majlislar bo`ladimi, yillik hisobotlar bo`ladimi ularda Umsun opaning ishlari muhokama qilinmasdi. Bundan o`ylaymanki, ustozimiz shuncha yillik faoliyati davomida intizomiy jazo olmagan bo`lsalar kerak.

Biz ham ulardek bo`lishni istagan va sud raisining hayotiga qiziqqanmiz. Umsun opaning xonadonlariga borganmiz. Shuncha yildan beri yuqori lavozimda ishlaganliklari uchun biz ularni juda ham badavlat, hashamatli uylari bo`lsa kerak, deb o`ylaganmiz, lekin borganimizda ko`rdikki, oddiy, qo`shnilarnikidan farq qilmaydigan, pastqamgina, loysuvoq uy ekan.

Ularning hovlisida kichik bog`lari bor edi. Unda uzum va olmalari bo`lardi. U kishi viloyat sudiga kelsalar, bizga ham ilinib turli xil uzum va olmalar olib kelardilar. Biz hammamiz ularning o`zi yetishtirgan, parvarishlagan uzumlardan yer edik. Ustozimiz faqatgina sud ishlari bilan cheklanib qolmagan. Balki, bog`dorchilikdan ham yaxshigina xabarlar bo`lib ana shu bog`dagi daraxtlarga va o`simliklarga ishlov berishni hech qachon kanda qilmaganlar. Toklarni kuzda ko`mib, bahorda ochishda, uzumlarni mayiz qilishda va yig`ishtirib olishda o`zlari qatnashganlar.

Yana bir qiziq jihati shuki ustozimiz mas`ul lavozimda ishlasalar ham doimo ro`mol o`rab yurardilar. Men sira ustozimizning biron go`zallik saloniga borib yoki uyda bo`lsin sochlarini turmaklab kelgan holatlarini ko`rmaganman.

Umsun opa doimo oddiy kiyinib yurganlari uchun ularni ko`chada ko`rgan kishi biron davlat tashkilotida ishlaydi deb o`ylamasdi. Lekin sud jarayoni boshlanib yo`g`on ovozlari bilan sud majlisini olib borishlari hamda taraflarga aqli va o`rnida savollarni berishidan ularning kimligini bilib olardingiz. Butun zalni ovozlari qamrab olardi. Mana shu oddiy kiyinib yurgan ayolga tumandagi jamiki boy-u kambag`al qo`lini ko`ksiga qo`yib salom berishini ko`rgan begona odam dastlab hayron qoladi. Lekin opa bilan ko`rishish va ozgina bo`lsada gaplashishni ko`pchilik o`zi uchun faxr deb bilardi.

Men Umsun opaning farzandlaridan Qodirjonni va Gulbahorni yaxshi taniyman. Ular ham istarali, onalari kabi mehnatkash va kamsuqum. Ularning oilasi ham juda go`zal va onalaridan o`rnak olib hashamga va ortiqcha zeb-ziynatlarga ruju qo`ymagan.

Ustozimiz uylar, qasrlar qurmadiyu, lekin o`zlaridan ko`pchilikka manfaatli juda katta maktab qoldirdilar.

Biz Jizzax viloyatidan chiqqan huquqshunos ayollarmiz. Va viloyatimizda Umsun opadek ayolning

Bo'lganidan, ularning shogirdi bo'lganimdan faxrlanaman. Ular nafaqat mening balki butun Jizzax viloyatidan yetishib chiqqan huquqshunoslarning ustozlari. Yana uzoq muddat ularning suhbatini olish va farzandlarining, nabiralarning yutuqlari bilan tabriklash nasib qilsin.

Bugun sud'yalikka tayinlangan xodim xonasiga kelsa uning oldida kompyuter va kodekslar turishi bu oddiy hol. Shuningdek, ularning oldida yana bir kitob paydo bo'lyapti. Bu esa Umsun opa Astanova to'g'risidagi kitobdir. Yangi tayinlangan sud'ya ishini turli xil hujjatlar bilan tanishishdan boshlaydi. Shularning barobarida Umsun opa Astanovaning hayot yo'liga bag'ishlangan kitobni ko'rsa, o'qisa, o'rnak olsa o'zlariga ham ularning yo'li nasib qiladi. Bizga ham farzandlarimizga shu kitoblardan lavhalar o'qib berish nasib qilsin.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsam bugungi kunda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist. "Shuhrat" ordeni, Mo'tabar ayol, Mehnat faxriysi, Sud faxriysi ko'krak nishonlari sohibasi. 92 yoshni qarshilayotgan Umsun opa haqida kitob tayyorlangani alohida tahsinga sazovordir.

EI DARDIGA MALHAM BO'LIB

Roza PARDAEVA,
sud faxriysi

Umsun opa Astanova 12-13 yoshligida dadam rahbar bo'lgan tashkilotda ishlaganlar. Bolaligi Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davrga to'g'ri kelganligi uchun juda qiyinchilikda o'tgan. Bir amallab ulg'ayib voyaga yetgach, o'qish davri ham mashaqqatli va sinovlarga boy bo'lgan. Onam rahmatli bir marta ularning uyiga borgan ekanlar o'shanda ular ko'rsa-ki Umsun opa, onasi va singillari bilan sandalning ichida ko'rpaga o'ranib yotibdi. Ko'rpaning ustini esa qor qoplagan. Haqiqatdan ham u paytlarda butun xalq qiynalgan. Agar onam xamir osh qilsalar qo'shnilar chelak ko'tarib kelisharkan shu xamirni qaynatib olgan suvingizni bizga bering biz ichamiz, deb.

Umsun opaning Norbuvi degan singillarini eslayman. Garchi singillari erta vafot etib ketgan bo'lsalarda men quvongan narsa opaning oyoqqa turib el orasida obro'e'tibor topgan paytlarini onalari va singillari ko'rdi.

Men 1976 yildan 1985 yilgacha sud'ya bo'lib ishladim. Faoliyatim davomida Umsun opaga rahbar ham bo'ldim. Bu paytda ularning yoshi katta edi. Ular nafaqat mas'uliyatli sud'ya, balki yaxshi inson, muomalali va kamtar ham edilar.

Garchi Umsun opa tuman sudida ishlagan bo'lsalar ham, lekin butun Respublika bo'yicha sud-huquq tizimi vakillari, xususan o'sha vaqtdagi Adliya vaziri, Oliy sud rahbariyati tanirdi va hurmat qilardi. Ularning bu hurmat qilishlari faqatgina Opaning yoshlariga bog'liq emas, balki ilmi va kasbiga sadoqati hamda odilligi tufayli edi, desam mubolag'a bo'lmaydi.

Umsun opa badiiy kitoblar o'qishni va shogirdlar tayyorlashni ham yaxshi ko'rardilar. Ular shogirdlariga qarata shunday deganlariga bir necha marta guvoh bo'lganman: O'z qadringizni biling. Yaxshi kuningizda hamdam, yomon kuningizda dushman bo'ladigan riyokor bilan emas, balki yaxshilikning qadriga yetadigan, nafs bandasi bo'lmagan, og'ir kunda ham do'stini o'ylaydigan inson bilan do'st bo'ling, der edilar.

Biz ishlagan vaqtlarda bir joyda 5 yildan ortiq ishlash mumkin emas, bu davrda odamlarni tanib-bilib qolib natijada qing'ir ishlarni qilish ehtimoli yuqori bo'ladi, degan gaplar bo'lardi. Umsun opaning uzoq muddat — 26 yil davomida bir joyda ishlashining ortida esa ularga nisbatan Oliy sud rahbariyati hamda xalqning ishonchi katta bo'lganligi yotadi mening nazarimda.

Forish tumani aholisi turli joylardan kelgan. Hozir ularning shevalari Jizzaxning boshqa tumanlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Shuning uchun ham ular musofir bo'lganligi sababli munozarali holatga duch kelgan vaziyatda muammolariga adolatli yechim bo'lganki, rozi bo'lib ketishgan va shu sababli ham opani hurmat qilgan, deb bilaman.

Bundan tashqari, u paytlari sudlar hozirgidek fuqarolik, jinoiy, ma'muriy, iqtisodiy kabi turlarga bo'linmagan. Bitta sud'ya barcha toifadagi ishlarni ko'rib ketaverardi. Shuningdek, paxta ishi degan narsa bo'lardi. Barcha davlat tashkilotlari bu davrda og'ir vaziyatlarni boshidan o'tkazgan. Sudlarga yuz tomlik ishlar kelardi. Ayrim paytlari ular devonxonaga sig'masdi.

Mana shunday vaziyatlar ham mas'uliyatli lavozimda ishlagan kishilarga qo'shimcha yuklama bo'ldi. Sir emas 80-yillardagi "o'zbeklar ishi" kompaniyasi davrida qanchadan-qancha insonlar aybsiz aybdor bo'ldilar. Qanchalari ishdan bo'shatildi, qanchalari asossiz turli muddatlarga hukm qilindi. Ana shunday davrlarda ham dolg'ali dengizda kemasini qoyalarga urmasdan eson-omon olib o'tgan dengizchilar misol davrning evrilishlariga dosh bergan insonlar bo'ldi va ularning bu ishlarini haqiqiy qahramonlikka mengzash mumkin. Umsun Astanova ana shunday davr sinovlariga dosh berib yurt mehrini qozondi va bugun o'zi yillar davomida xizmat qilgan xalqning ardog'idadir.

“UMSUN SUD” ADOLATLI SUD`YA

Mirzamahmud ISKANDAROV,
sud faxriysi

1986 yilda Adliya boshqarmasiga ishga kelgan paytlarimda tuman-shahar sudlari Adliya boshqarmasiga bo'ysunardi. Men sud statistikasi va sud ishlari bo'yicha katta maslahatchi lavozimida ishlardim va menda o'sha paytda sudlar faoliyatiga doir tahliliy ma'lumotlar bo'lardi. Xususan, kim qancha ish ko'rdi, shundan nechtasining ustidan shikoyat bo'ldi, ularni qanchasi o'zgartirilgan yoki bekor bo'lgan kabi ma'lumotlarni yig'ardik. Shu tufayli qaysi tuman sudlarida ish qanday ketayotgani, kimning ishi sifatligi, kimniki orqaga ketayapti singari ma'lumotlar bo'lardi. Umsun Astanova Forish tumanida sud raisi bo'lib ishlagan yillari tumanning aholisi kam bo'lgani bilan uning hududi juda katta edi. Hattoki Aydarko'lning orqa tomoni va hozirgi Qozog'iston Respublikasining uchta hududi ham Forishga karardi. U tomonlarga Aydarko'lni aylanib, ko'prikdan o'tib juda uzoq va mashaqqatli yo'llardan yurib borilardi. Umsun opa tinchgina, ovora bo'lmasdan shikoyatchilar, guvohlar va aybdorlarni sud binosiga chaqirib qo'ysalar bo'lardi, lekin u kishi 8-9 kishi ovora bo'lib kelgandan ko'ra 3 kishi ovora bo'la qolsin, deb shu uzoq joylarga o'zlari borib sayyor sud o'tkazib kelardilar. Shuningdek, u vaqtlari sudlarning hozirgidek xizmat mashinalari ham bo'lmagan. Umsun opaning bir qora etiklarini eslayman, shuni kiyib olib sud maslahatchilari bilan ketardi. O'sha paytlarda sud ishlari sud maslahatchilari bilan birga ko'rilardi.

Men ish davrimda Umsun opaga biron marta kimningdir ishni o'z foydasiga to'g'rilash uchun iltimos qilganini va opa uni bajarganini eshitmaganman. Ustozimizga dastlab faoliyatlarining boshida o'z foydasiga hukm chiqarish uchun pul yoki moddiy boylik taklif qilgan bo'lishlari mumkin. Lekin, ular yillar davomida obro'sini saqlagani sababli odamlar bora-bora "Umsun sud"ga noto'g'ri hukm chiqarish borasida iltimos qilmaydigan bo'lishgan. Baribir opa adolatli hukm chiqaradi, unga aytganning foydasi yo'q, deb tushunishgan.

Kuzatuvlarim natijasida shunga amin bo'lganmanki, Forishliklar boshqa tuman fuqarolariga nisbatan o'z huquqini himoya qilish uchun talabchanroq bo'lishadi. Shuning uchun opa sud qarorlarini chiqarayotgan vaqtda mahalliy aholining holatini hisobga olib, qonunan, adolatli qaror chiqarganlar. Qarorlarini vaqtlari ketsa ham barcha uchun tushunarli qilib sharhlab berganlar.

Shuningdek, o'sha paytlari rahbariyatga yarim yoki bir yillik hisobotlar uchun ma'lumotlarni men berganman va ularning ichida yuqoridagi kabi salbiy holatlarni ko'rmaganman. Ularning o'zlari uchun bir tamoyillari bor edi. Bu qonundan chiqmaslik. Shu boisdan ham biz ularning bu kabi ko'plab jihatlaridan o'rnak olganmiz. Ustozimizning uzoq yillar ishlagani va hozirgi kunda ham qadrlanganligining sababini shu deb bilaman. Ustozimizga havas qilganmiz, ularning yo'lidan yurishni o'zimizga mayoq qilib olganmiz. Shu bois menga ham, boshqa shogirdlariga ham ularning izidan yurib sud'ya, sud raisi sifatida ishlash va el orasida hurmat-izzatda bo'lish nasib qilgan.

Umsun opa

“Forish” nomi “Parij” bilan birga kelar,
Nima, bizga qarindoshmi farangilar?
Balki, Sohibqiron bir payt aytgan chiqar:
“Eng zo`r shahring ovulimga teng, Ovro`po”
Yo boshqa bir odil hukm bormi, opa?
Siz bilasiz, uzukdagi: “Rosti-Rusti”
Bitigin yod olgan yarim yerning usti.
Uzun bo`lgan uzuk sohibining dasti
Yetgan yetti iqlimgacha dovrug`i to,
Olmon, yunon va isfahon, hindu xito...
Siz qilni qirq yorgan zakiy, kayvon ayol,
Haq, yo`lida fikri teran, labzi halol,
El oydini, farishtasiz malak misol.
Femidalar ko`zin ochib-yumsin, opa,
Toshi tushib tarozusi sinsin, opa.
Tegrangizda turfa gullar unsin, opa,
Sizga alqov, Sizga tahsin, Umsun opa.

Hol Muhammad Hasan


Xulosa

Umsun opaning ayanchli bolalik xotiralarini eshitib, inson taqdirining qanchalik murakkabligini, bu bevafo va bebaqo dunyoda sanoqsiz chigal muammolar bilan duch kelib yashashga majbur ekanligini teran his qilasiz. Umsun Astanovaning mana shu azob-uqubatlarni sabot va matonat bilan yengib o`tganligining o`zi juda katta ma'naviy jasoratdir. Umsun opa najot faqat halollikda va intilishda deb bilib, barcha sinovlarni mardonavor yengib o`tganligini ko`pchilik havas va hayrat bilan qaraydigan keyingi hayoti isbotlab beradi. Zero, akademik shoirimiz G`afur G`ulom ta'biri bilan aytganda:

**“Taqdirin qo`l bilan yaratatur odam,
G`oyibdan kelajak baxt bir afsona.”**

Aslida insonning keyingi taqdiriga uning bolaligida poydevor tashlanadi. Opaning bolalik chog`laridayoq mana shunday adoqsiz azob-uqubatlar bilan ro`baro kelishi, uning keyingi hayoti va faoliyati gullab-yashnashiga muhim omil bo`lgandir, ehtimol. Balki, mana shunday “baxtsiz bolalik”ni boshidan o`tkazmaganida bugungiday sharafli martabalarga erishmagan bo`lishi mumkin edi. Bu bizning xulosalarimiz, xolos. Shubhasiz, har bir insonning taqdiri Yaratganning izmida...

Fotolavhalar



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сайпулов,Б. “Уч авлод учрашуви” ташкил этилди:[Тадбирда судьялар, суд фахрийлари, нуронийлар сўзга чиқиб 26 йил суд раиси бўлиб ишлаган Умсун Астанованинг ҳаёт йўли ҳақида сўз юритдилар]/Б. Сайпулов//Forish tongi.-2025.-14 iyun
2. Мансурова,Ш. Жиззахнинг тирик афсонаси:[Умсун Астанова 26 йил Фориш туман суди раиси бўлиб ишлади]/Ш. Мансурова//Forish tongi.-2026.-4 apr.
3. Эшмуродов, А. Матонатли аёл қиссаси.(Матн).А.Эшмуродов.- Тошкент: Ijod studio,2023.-184 бет.
4. Мансурова,Ш. Ҳаёт синовларида тобланган онахон:[Онахон салкам бир асрлик ҳаёт мактаби билан кўплаб шогирдларига тўғри йўл кўрсатиб келди]/Ш. Мансурова//Jizzah haqiqati.-2026.-20 mart

Mundarija

SO`Z BOSHI -----	3
TARJIMAI HOL -----	3
INSON HAMISHA MEHRGA MUHTOJ -----	4-5
BAXT KELITIRGAN BAXTSIZ BOLALIK -----	5 - 7
“OSMON UZOQ, YER QATTIQ” -----	7-9
TAQDIR TUHFASI YOXUD	
RO`SHNOLIKNING BOSHLANISHI -----	9-10
BIR UMRLIK O`GIT...-----	11
DASTLABKI SUD ISHIDAN	
CHIQRILGAN HAYOT SABOG`I -----	11-12
TOSHKENTGA, OLIY YURIDIK	
TA'LIMGA YO`L -----	12
SUD`YALIKKA NAVBATDAGI QADAM -----	16-17
HAYOT SINOVLARIDA	
TOBLANGAN ONA! -----	20-22
“UMSUN SUD” ADOLATLI SUD`YA -----	29-30
XULOSA -----	30
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR -----	32